

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida

UDK:811.512.133:81.36:81.37


NARQABILOVA DILFUZA NORSAITOVNA

SHE'RIYATDA ANAFORA VA KONTRASTNING IFODALANISHI

70230101-Lingvistika ( O'zbek tili) mutaxassisligi bo'yicha magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:



Xolova Muyassar Abdulhakimovna  
Filologiya fanlari falsafa doktori (PhD)

TERMIZ-2023

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil, 24.01 dagi № 2- T/M sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O'zbek tilsimonligi kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (39- raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko'chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar:



f.f.d.(PhD) M. Xolova

Kafedra mudiri:



f.f.d. (PhD) N. Amonturdiyev

Magistratura bo'limi boshlig'i:



(PhD) A.B. Narbayev

## KIRISH

### **Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.**

Bugungi kunga kelib shiddat bilan rivojlanayotgan mamlakatimizda madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy katta o'zgarishlar ro'y bermoqda hamda tub islohatlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayon har bir individdan tarixni bilish, unga hurmat bilan qarash va kelajak avlod ravnaqi yo'lida eng maqbul yo'llardan borishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasida olimlarga berilgan imkoniyatlar, ularning oldiga yangi-yangi vazifalarning qo'yilishi, ularning madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratishiga<sup>1</sup> poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birgalikda ta'lim olayotgan yosh avlodning siyosiy-ijtimoiy qarashlarini hamda ma'naviy axloqiy ongini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni aytish lozimki, mustaqilligimizdan o'tgan 30 yil mobaynida o'zbek tilshunosligi doirasida ulkan o'sishlar kuzatildi. Buni biz tilshunoslikda lingvopoetika, lingvokulturologiya, psixolingvisvistika, neyrolingvistika kabi sohalarning kirib kelishi va rivojlanishi bilan bog'lab ko'rsatish mumkin va bu borada tizimda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlaridan xulosalar lingvistikaning nazariy asoslarini boyitishga xizmat qildi. Ayni kunlarda o'zbek tili leksikasi va semantikasi, badiiyati yo'lida, poetik nutq vositalari orqali lison, til, nutqni o'rganishga oid tadqiqotlar anchagina salmoqli o'rinni egallamoqda. Badiiy matnning lingvistik tahlil qilish jarayonida zamonaviy lafziy va she'riy san'atlarni aniqlash orqali til imkoniyatlari chegarasini aniqlashga, ona tilimizning muayyan nozik qirralarini namoyon etishga doir tadqiqotlar safi kengaymoqda. Ma'lumki, she'riy san'atlar badiiy asarda ifodalanganda hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyliigi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan. U yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan o'z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma'rifiy-

---

<sup>1</sup> O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 22-oktyabr kuni o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan

tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko‘lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo‘llangan she‘riy san‘atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o‘rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qilingan<sup>2</sup>. Badiiy matnning lingvistik tahlil jarayoni, lingvopoetikaning asosiy o‘rganish obyekti – badiiy matn bo‘lib, badiiy matnlarga tipologik nuqtayi nazardan yondashiladi. Ushbu matnlarning she‘riy ekanligi esa matnning emotsional-ekspressiv semantikasini kuchaytirib, hissiy-ta‘siriy bo‘yog‘ini oshirishga xizmat qiladi va bu jarayonni amalga oshirishda she‘riy matnlar tarkibidagi she‘riy san‘atlar alohida o‘ringa ega. Bizning tadqiqotimiz shunday hissiy-tasiriy kuchga ega bo‘lgan anafora va kontrastlarning badiiy matnda badiiy-estetik butunlik sifatida namoyon bo‘lishini va nihoyatda murakkab, serqatlam hodisa sifatida talqin etadi va tadqiq etadi. Har qanday she‘riy matnning mazmunini tushunish, uning til leksikasi va grammatikasini bilish yetarli bo‘lib qolmay, uning mazmunini boyitish yo‘lida xizmat qiluvchi takrorga asoslangan anafora hamda qarama-qarshilikka tayangan kontrast kabi lisoniy birliklar badiiy matnning mazmunini idrok etish uchun badiiy matnning o‘ziga xos lisoniy-poetik qonuniyatlarini belgilash uchun asos bo‘ladi. Avvalo, lingvistikadagi anaforaning tutgan o‘rniga to‘xtaladigan bo‘lsak, jahon lingvistikasida “anaphora» (αναφορα) termini qadimiy yunon tiliga borib taqalishi va *ava*-oqimga qarshi, ya‘ni orqaga hamda *φορα* – ko‘chish akti degan ma‘noni anglatishini ta‘kidlaymiz. Anafora o‘zgacha holatda xotirada qoluvchi belgi xususiyat va effektiv xarakterga ega bo‘lgan belgidir. Shunga qaramasdan, lingvistika tarixida lison, til va nutqni yuzaga chiqarishda anafora o‘ziga xos imkoniyatlar va voqelikka ega bo‘lgan lingvistik hodisa sifatida tilga olinadi. Shu o‘rinda lingvistlar oldida bir muammo yuzaga keladi. Anafora nima va u o‘z oldiga qanday vazifalarni qamrab oladi? Ushbu dissertatsiyada anafora va kontrastni matn tarkibida ko‘rib chiqish orqali lingvistik xususiyatlarini aniqlash mumkinligi ko‘rib o‘tiladi.

---

<sup>2</sup> T. Sabitova. Navoiy ijodida badiiy san‘atlar / academic research in educational sciences/ volume 2 | issue 4 | 2021 issn: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00704 Academic Research, Uzbekistan 1074 [www.ares.uz](http://www.ares.uz) [1074-1091.pdf \(ares.uz\)](http://www.ares.uz/1074-1091.pdf)

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ushbu dissertatsiyada badiiy matn lingvistikasidagi anafora va kontrastning uslubiy-ekspressiv xususiyatlari, uning stilistik va semantik o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Anafora va kontrast yuzasidan jahon lingvistikasida juda ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, bular sirasiga Grem Xrest<sup>3</sup>, Sh.N.Komissarov, L.A.Vvedenskaya, L.A.Novikov, Yu.D.Apresyan,<sup>4</sup> I.R.Galperin, L.T.Ba-Oaxanova, E.A.Atayeva, N.N.Zolina, V.Ya.Pastuxova<sup>5</sup>, Y.M. Skrebnev, M.P. Brandes, A.N. Moroxovskiy, S. Ulman, N.S.Trubetskoy, C.Ogden, R.Ya.Yakobson, Yu.M.Lotman, N.D.Arutyunova, V.V.Odinov, L.A. Matvievskaya, G.F.Denisova, M.V.Nikitin, E.I.Zueva, LI.Timofeev, V.V.Vinogradov, I.K.Beloded, E.P.Andreeva, E.Dobin<sup>6</sup>, N.A. Postolovskaya, I.V. Arnold, G.V. Andreeva<sup>7</sup> kabi olimlar tomonidan olib borilgan ishlarni qayd etish lozim bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida hozirga qadar badiiy matn lingvistikasi sohasida anaforaning tutgan o‘ni, etimologiyasi, genezisi, uni yazaga keltiruvchi omillar va tadqiqotiga doir bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Bu borada To‘ychiboyev U.<sup>8</sup>, Hojiyev A.<sup>9</sup>, Shofqorov A.<sup>10</sup>, Karimov S.<sup>11</sup>, B.Umurqulov<sup>12</sup> kabi olimlarning olib brogan tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Tilshunoslikda 1980-90 yillar oralig‘ida nazmiy va nasriy asarlarda anaforani topish vositasida nazariyalarini ishlab chiqish jarayonlari anchagina o‘rinni egallagan bo‘lsa-da, uning har bir sath doirasida, ya’ni morfemik, morfologik, leksik va sintaktik asoslash katta o‘rinni egallamagan edi. Ushbu tadqiqotimiz ushbu jarayonlarning barchasini qamragan holda akslanishiga asos bo‘luvchi omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. I.Bekmurodova anafora doirasida badiiy uslubda takrorning vazifasi faqatgina ma’lum narsa-

---

<sup>3</sup> Грэм Херст. Анафора в понимании естественного языка. Hirst: 1981.

<sup>4</sup> Galperin I. R. Some Principal Issues of Style and Stylistics as Viewed by Russian Linguists // Style. 1971. P. 1-20. P. 16.

<sup>5</sup> Galperin I. R. Some Principal Issues of Style and Stylistics as Viewed by Russian Linguists //Style. 1971. P. 1-20. – P. 5.

<sup>6</sup> Timofeev L. I. Osnovy teoriya literatury //Moskva, Prosveschenie, 1976. C. 197.

<sup>7</sup> Шер Д. К. Идентификация и анализ контраста как дискурсивного отношения //Вестник Челябинского государственного университета. – 2020. – №. 1 (435). С. 181-187.

<sup>8</sup> To‘ychiyev U. O‘zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011

<sup>9</sup> Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. O‘zME, 2002. B. 168.

<sup>10</sup> Shofqorov A.M. O‘zbek tilida badiiy takror. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. B. 120.

<sup>11</sup> . Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand, SamDU, 1994. B. 140.

<sup>12</sup> Умуркулов Б. Поэтик нутк лексикаси. Фан: 1990.

hodisani yoki holatni ajratib, ta'kidlab ko'rsatish bilangina chegaralanmasligini, badiiy asarda barcha uslubiy vositalarda bo'lgani kabi, takrorning zimmasiga ham til birliklariga emotsional bo'yoq, alohida ohang, joziba berish vazifasi yuklanishini, agar imkoniyat bo'lsa, shu vazifalarni amalga oshirish bilan bir qatorda muallifning yoki asar qahramonining voqelikka subyektiv munosabatini ham bera olishi kerakligini ta'kidlaydi<sup>13</sup>. Rus tili adabiyotlarida anafora san'atining badiiy adabiyotlariga nisbatan oddiy so'zlashuv uslubida ko'proq uchrashi mumkinligi ta'kidlanadi<sup>14</sup> va ushbu san'atdan turli maqsadlarda foydalaniladi:

1. Ritmni yuzaga chiqarish uchun.
2. Bir necha tushunchalarni qarama-qarshi qo'yish maqsadida.
3. Ma'lum bir til birliklarini xotirada qoldirishning qulayligini oshirish maqsadida.

Badiiy matn lingvistikasida aniq bir g'oya va tushunchani axborot qabul qiluvchiga chuqur singdirish uchun anafordan foydalaniladi. Ushbu takror qaytariq orqali kommunikant yoki auditoriya ongida mulohaza va mushohadaga yo'l ochadi. Ya'ni anaforaning takroriylik xarakteri, ushbu barcha sabablar og'zaki nutq va yozma axborotlar xotirada saqlash qulayligini oshiruvchi omillar vazifasini o'taydi. Badiiy matnda anaforani diqqatni jalb etuvchi va xotirada mustahkam o'rin egallovchi xususiyatlarini yuzaga chiqaruvchi misollarni ko'rib o'tamiz.

Mazkur magistrlik dissertatsiyasida badiiy matnlarda zamonaviy she'riy san'atlar hisoblangan anafora va kontrastlarning qo'llanish doirasi va tamoyillari ustida ishlangan bo'lib, ularning lingvistikadagi yutgan o'rniga keng e'tibor berilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Badiiy matnda anafora va kontrastni yuzaga chiqaruvchi vositalarni aniqlash, tahlil va tadqiq etish orqali uning o'zbek adabiy tili rivojidadagi o'rnini belgilashdan iboratdir.

**Tadqiqotning vazifalari.** Tadqiqot maqsadini amalga oshirish quyidagi vazifalarni bajarishni taqozo etadi:

---

<sup>13</sup> <file:///C:/Users/hp/Downloads/halima-ahmedova-she-riyatida-takror-san-atining-lingvopoetik-xususiyatlari.pdf>

<sup>14</sup> <https://www.studiobinder.com/blog/what-is-anaphora-definition/>

— jahon tilshunosligida anaforaning o‘rganilish holatini tahlil qilish baholash;

– o‘zbek tilshunosligida anaforaning o‘rganilish holatini ilmiy-tanqidiy va tahliliy baholash;

– o‘zbek tilshunosligida qarama-qarshilik vositasida kontrastning tadqiq va tahliliy baholash;

– mumtoz va zamonaviy adabiyot tarkibida morfemik, leksik, strofik anaforalarga alohida yondashish;

– she‘riyatda kontrastning yuzaga kelishi va bunga sabab bo‘luvchi omillar va shartlar.

– o‘zbek she‘riyatida qarama-qarshilik va uyg‘unlik nazariyasiga oid qarashlarni ko‘rib chiqish.

**Tadqiqot obyekti.** Tadqiqot obyekti sifatida jahon adabiyoti, o‘zbek tili mumtoz va zamonaviy adabiyoti she‘riyati, qisman nasriy, drammatik namunalari tanlandi.

**Tadqiqot predmeti.** Jahon adabiyoti, o‘zbek tili mumtoz va zamonaviy adabiyotida keltirilgan she‘riyatidagi, qisman nasr va tarkibida takror hamda nazmiy asarlarda mavjud ziddlik asosiga qurilgan she‘riy san’atlar ilmiy tahlil va tadqiq uchun asos qilib olindi.

**Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari.** Bunda, asosan, lingvopoetik, uslubiy, qiyosiy hamda statistik tahlil usullaridan keng foydalanish nazarda tutiladi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

– anafora va kontrastning qadimgi, mumtoz va zamonaviy she‘riyatda tutgan o‘rniga baho berildi;

– anafora va kontrastning zamonaviy she‘riyatda yuzaga keltiruvchi vositalar leksik-morfologik jihatdan statistik tahlil qilindi;

– hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud anafora va kontrast kabi she‘riy san’atlarning qo‘llanishiga doir nazariyalarni lingvopoetik jihatdan tahlil etildi;

– mumtoz adabiyot va hozirgi o‘zbek adabiyotida qo‘llangan anafora va kontrast kabi she’riy san’atlar davrlararo qiyoslanib zamonaviy adabiyotda ushbu she’riy san’atlarning nisbatan ko‘proq o‘rin egallaganligi aniqlandi.

– **Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:** Ilmiy tadqiqot ishida adabiyotlarda qaytariq va qarama-qarshilik orqali yuzaga keluvchi anafora hamda kontrast kabi zamonaviy she’riy san’atlarning lingvopoetik xususiyatlari yoritiladi.

**Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi:** So‘nggi yillarda lingvistikada, xususan, o‘zbek lingvistikasida badiiy matn tadqiqi va tahlili muammolari bilan shug‘ullanish jarayoni jiddiy tus oldi. Shuning bilan birgalikda lisoniy birliklarning she’riy asarlardagi lingvistik va badiiy-estetik vazifasini tahlil qilish hamda she’riy san’atlarning badiiy adabiyotdagi tutgan o‘nini aniqlash bugungi kunda hali yana ko‘p tadqiqotlarning yaratilishini taqozo qiladi. Ushbu tadqiqotimiz doirasida, ya’ni she’riy asarlarda zamonaviy san’atlar, anafora va kontrastning qo‘llanishi va ularning tutgan o‘rnini aniqlash, lingvistik nuqtayi nazardan yondashishga oid o‘zbek tilshunosligida bir qator ilmiy ishlar tarkibida o‘rganilganligining guvohi bo‘lindi. Qaytariq va qarama-qarshilik inson tafakkurining asosiy qonuniyatlaridan biri bo‘lib ularning nisbati dunyoni bilishning aksi bo‘lib, badiiy adabiyotda yozuvchi uslubining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Va buning vositasida, yozuvchi o‘zining turli xil badiiyatini voqelikni ta’kidlash, qarama-qarshi idrok etish orqali, badiiy nutq vositalarining murakkab tizimini tuzishga erishadi.

She’riy asarlarda eng ko‘p qo‘llanuvchi takror turlaridan biri – anafora hisoblanib, ushbu usul misra, matn boshidagi so‘zning takroridan iborat va u nutq figurasi deb ham nomlanadi. A.N. Vselovskiy<sup>15</sup>, A. A. Potebnaya<sup>16</sup>, M. Polyakov<sup>17</sup>, O.S. Axmanova<sup>18</sup>, K.A.Dolin, E.A. Sedix<sup>19</sup> kabi olimlar anaforaga oid ilmiy va amaliy tadqiqotlar amalga oshirgan. She’rdagi kengaygan takror ya’ni anafora

---

<sup>15</sup> Веселовский А. Н. Историческая поэтика. – М. Высшая школа. 1989.

<sup>16</sup> Потебная А. Эстетика и поэтика М. 1976. С. 272.

<sup>17</sup> Polyakov AM (1981). "Quantum geometry of bosonic strings". Phys. Lett. B. 103 (3): 207–10.

<sup>18</sup> С. Ахманова Словарь лингвистических терминов – М.: 2004.

<sup>19</sup> Седых Э. В. Контраст в поэзии как один из типов выдвижения : 10.02.04.// Седых Э. В. Контраст в поэзии как один из типов выдвижения: Дис. ... канд. филол. наук 10.02.04 СПб., 1997 С. 208.



soʻzlarning alliterativligiga xizmat qilgan. Anaforalar haqida turli ilmiy manbalarda bir-birini inkor etmaydigan muayyan fikrlar<sup>20, 21</sup> berilgan, Prof. Azim Hojiyev anaforani taʼriflar ekan, uning (yun *anafora* – yuqoriga chiqarish) parallel tuzilgan nutq parchalari (mas, misralar) boshida aynan bir unurning takrorlanishidan iborat uslubiy qoʻllanish sifatida va unga zidlik sifatida epifora haqida gapirib oʻtadi, Y.Toʻychiyev esa anaforaning fonetik, leksik, sintaktik, strofik (misraviy) turlarini farqlaydi va qatʼiy tizimli takrorlardan biri ekanligini, sababi anaforada qanday birlik takrorlanishidan qatʼiy nazar sheʼriyatda misralar boshida, nasrda gaplar boshida takror kelishini taʼkidlaydi<sup>22</sup>.

Uilyam Bleykning «Jaholat va bilim qoʻshiqlari» asarida qarama-qarshilik tipologiyasini koʻrib chiqishga alohida eʼtibor beriladi, chunki aynan shu shoir ijodida qarama-qarshilikning barcha turlarini topish mumkin. Sh.N.Komissarov, L.A.Vvedenskaya, L.A.Novikov, Yu.D.Apresyan kabilar ayni vaqtga qadar tilda qarama-qarshilik kategoriyasini aks ettirish muammosi leksik antonimiya hodisasi bilan yoki tavsifi bilan bogʻlanib kelishgan<sup>23</sup>. I.R.Galperin, L.T.Ba-Oaxanova, E.A.Atayeva, N.N.Zolina, V.Ya.Pastuxovalar tomonidan kontrastning antiteza va oksimoron kabi stilistik vositalari sifatida<sup>24</sup>, Y.M. Skrebnev, M.P. Brandes, A.N. Moroxovskiy, S. Ulman kabilar esa oʻz qarashlarida yuqoridagilardan tashqari «qarama-qarshi figuralar» atamasi ishlatishgan. Kontrast N.S.Trubetskoy, C.Ogden, R.Ya.Yakobson, Yu.M.Lotman kabilarning asarlarlarida murakkab hodisalardan biri sifatida eʼtirof etilgan, N.D.Arutyunova uni sof texnik texnika sifatida, V.V. Odintsov nutqni rivojlantirishning kompozitsion va stilistik printsiplari sifatida, olim L.A. Matvievskaya stilistik vositalar tizimi sifatida, G.F.Denisova trop sifatida qayd etgan. Olimlar M.V.Nikitin, E.I.Zueva fikricha zidlik nafaqat stilistik, leksikologik va semasiologik jihatdan, balki LI.Timofeev,

---

<sup>20</sup> A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati, UzMU. 2002. B. 14.

<sup>21</sup> Yoʻldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili, – Toshkent, Fan, 2007. B. 9..

<sup>22</sup> Toʻychiyev Y. Oʻzbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari T. Yangi asr avlodi 2011. B. 93.

<sup>23</sup> Galperin I. R. Some Principal Issues of Style and Stylistics as Viewed by Russian Linguists //Style. – 1971. C. 1-20. P. 16.

<sup>24</sup> Galperin I. R. Some Principal Issues of Style and Stylistics as Viewed by Russian Linguists //Style. – 1971. C. 1-20. P. 5.

V.V.Vinogradov, I.K.Beloded, E.P.Andreeva, E.Dobin fikriga hamohang adabiy tanqidga ham bog‘liq holda o‘rganilgan<sup>25</sup>. N.A. Postolovskaya, I.V. Arnold, G.V. Andreeva<sup>26</sup> kabi olimlar kontrasning nominativ turlardan biri hisoblab, hozirgi vaqtda uni o‘rganinshning yangi dekodlash uslublari va yondashuv kelib chiqayotganligiga e‘tibor qaratishgan. She‘riy matndagi kontrast targ‘ibot turlaridan biri sifatida mazmunning eng muhim elementlarini ta‘kidlab, matnning ifodaliligi va yaxlitligini ta‘minlaydi. Sarlavha kontrasti, she‘rlar siklidagi va undan tashqaridagi sarlavhalarning qarama-qarshiligi, epigraf va matn o‘rtasidagi kontrast, she‘rning boshi va oxiri o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar uchrashini ta‘kidlaydi. Shuning bilan birgalikda tilshunos olim A.Mamajonovning “Tekst lingvistikasi<sup>27</sup> «nomli qo‘llanmasida, M.Qurbonovanning “Matn lingvistikasi<sup>28</sup> «, E.Qilichevning “Matnning lingvistik tahlili<sup>29</sup>« qo‘llanmasida, M.Yo‘ldashevning “Badiiy matn va uni lingvopoetik tahlili asoslari», B.Umurqulovning “O‘zbek badiiy nasrining lingvoslubiy shakllanish asoslari<sup>30</sup>« kabi ilmiy tadqiqotlarda anafora va kontrastning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikrlar yuritilgan.

**Ishning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, olti fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 70 sahifadan iborat.

---

<sup>25</sup> Timofeev L. I. Osnovy teoriiya literatury //Moskva,«Prosveschenie», 1976. С. 197.

<sup>26</sup> Шер Д. К. Идентификация и анализ контраста как дискурсивного отношения //Вестник Челябинского государственного университета. – 2020. – №. 1 (435). С. 181-187.

<sup>27</sup> Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – Toshkent: Fan, 1989

<sup>28</sup> Qurbonova M. Matn tilshunosligi. – Toshkent, Universitet. 2014.

<sup>29</sup> E.Qilichev. Matnning lingvistik tahlili. – Buxoro: 2000.

<sup>30</sup> Б.Умуркулов Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. –Тошкент, 2020. –Б. 271.

# I BOB. BADIY SAN'AT VA ULARNING SHE'RIYATDA TUTGAN O'RNI

## 1.1. Jahon adabiyoti she'riyatida morfemik, leksik, sintaktik, ohang shaklidagi anaforalar.

Ma'lumki, badiiy tasvir vositalari she'rlarda ifodalangan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirliroq ifodalanishiga, lirik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar bandlarning musiqiyliigi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan<sup>31</sup>. She'riy asarlarda eng ko'p qo'llanuvchi takror turlaridan biri – anafora hisoblanib, ushbu usul misra, matn boshidagi so'zning takroridan iborat va u nutq figurasi deb ham nomlanadi. A.N. Vselovskiy<sup>32</sup>, A. A. Potebnaya<sup>33</sup>, M. Polyakov<sup>34</sup>, O.S. Axmanova<sup>35</sup>, K.A. Dolin, E.A. Sedix<sup>36</sup> kabi olimlar anaforaga oid ilmiy va amaliy tadqiqotlar amalga oshirgan bo'lsa, Kontrast – atamasi poetikada qarama-qarshilik bu yaqinlashish prinsipi va ekvivalentlik asosida tashkil etilgan targ'ibot turlaridan biri sifatida belgilanadi. Sh. N. Kamissarov, L. A. Novikov, N. S. Trudeskoy, S. Ogden, R.Y. Yakobson, Y. M. Lotman<sup>37</sup> kabi olimlar kontrast ya'ni, “qarama-qarshilik” figuralarga oid ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

Anafora atamasi yunon tilidagi ikkita so'z birikmasidan kelib chiqadi. Birinchidan, “*Ana*”, uning ma'nosi “*takrorlash*” yoki “*o'xshashlik*” bilan to'ldirilgan *perein* esa bu – *harakat qilish*” degan ma'noni anglatadi va bu jarayon yozuvning ixtiro qilinishidan ancha ilgari sodir bo'lgan. Olimlarning ta'kidlashicha, anaforalardan foydalanish og'zaki nutq bilimlarni uzatishning yagona vositasi sifatida ayni o'sha davrdan boshlangan.

Anafora – barcha boshlanmalar, barcha misralar yoki yarim misralar boshida Ba'zi so'zlarning yoki yarim misra boshida, Ba'zi so'zlar yoki tovushlarning takrorlanishi orqali tavsiflanadigan tovushlarning uslubiy nutq figuralaridan biridir.

---

<sup>31</sup> No'monova M. U. Hamid olimjon she'riyatida leksik takrorlar// Academic research in educational sciences Vol. 2 | IS. 2 | 2021 ISSN: 2181-1385 2021.

<sup>32</sup> Веселовский А. Н. Историческая поэтика. – М. Высшая школа. 1989.

<sup>33</sup> Потебная А. Эстетика и поэтика М. 1976. С. 272.

<sup>34</sup> Polyakov AM (1981). "Quantum geometry of bosonic strings". Phys. Lett. B. 103 (3): 207–10.

<sup>35</sup> С. Ахманова Словарь лингвистических терминов – М.: 2004.

<sup>36</sup> Седых Э. В. Контраст в поэзии как один из типов выдвижения : 10.02.04.// Седых Э. В. Контраст в поэзии как один из типов выдвижения: Дис. ... канд. филол. наук 10.02.04 СПб., 1997 С. 208.

<sup>37</sup> Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. (структура стиха) – М.: 1972. С. 272.

**Anafora** (grekcha anafora – yuqoriga chiqarish soʻzidan) – sitilistik figuralardan biri boʻlib, misralarning boshida yoki prozaik badiiy asardagi Anafora (grekcha anafora – yuqoriga chiqarish soʻzidan) – sitilistik figuralardan biri boʻlib, misralarning boshida yoki prozaik badiiy asardagi gaplarning oldida bir xil jaranglagan tovush, ohangdosh soʻz yoki iboralarning takrorlanib kelishi hisoblanib, asosan, jahon sheʼriyatida anafora [Анафора - это риторический прием, который включает в себя повторение слова или фразы в начале последовательных предложений, фраз или клаузул.]<sup>38</sup> atamasi ostida berilib, keyinchalik oʻzbek tiliga oʻzlashgan termin sifatida qoʻllangan.

Jahon va oʻzbek adabiyotida anaforaning qoʻllanish darajasi va uning taʼsirchanlik doirasi har xil boʻlsa-da, ritorik priyomi, takroriylik xususiyati nuqtayi nazaridan umumiylik kasb etadi. Bunda tovushlar, leksemalar, soʻzlar, soʻz birikmalar yoki yaxlit bitta gap shaklida anaforalar kuzatilishi mumkin. Anafora badiiy usul sifatida yozuvchiga oʻz fikri bayonida aytmoqchi boʻlgan fikrini bermoqchi boʻlgan maʼnoni kuchaytirish imkonini beradi. Bu esa har bir til birliklarini qaytariqlarini nasriy yoki nazmiy matnda talab etadi. Masalan, Charlz Dikkensning ikki shahr haqidagi qissasiga eʼtibor qarataylik: “**ЭТО БЫЛО** лучшее из времен, **ЭТО БЫЛО** худшее из времен, **ЭТО БЫЛ** век мудрости, **ЭТО БЫЛ** век глупости, **ЭТО БЫЛА** эпоха веры, **ЭТО БЫЛА** эпоха недоверия, **ЭТО БЫЛО** время Света, **ЭТО БЫЛО** время Тьмы...”<sup>39</sup> [matndagi anforani toʻlaqonli koʻrsatish maqsadida rus tili shaklidagi variant berildi]. Ushbu misoldan koʻrinadiki, “**ЭТО БЫЛО**” gapi orqali muallif oʻz mulohazasini bir qadar emotsional-ekspressivlik bahosini oshirib anaforik talqain qilgan. Ammo ushbu jumlabi tabdil qilganda anaforik shaklning ikki xil sanʼatga aylanishini kuzatish mumkin, yaʼni “Bu zamonlarning eng yaxshisi edi, bu zamonning eng yomonlaridan biri edi, bu donolik asri edi, bu ahmoqlik asri edi, bu eʼtiqod asri edi, bu ishonchsizlik asri edi, bu nurafshonlik asri edi, bu zulmatga choʻkkan vaqtlar edi. edi...” shaklida bizga taqdim etilib, gap shaklidagi anaforaning tabdil jarayonida agglyutinativ til

---

<sup>38</sup> <https://literarydevices.net/anaphora/>

<sup>39</sup> <https://literarydevices.net/anaphora/>

tabiatidan kelib chiqqan holda leksik anafora va epifora<sup>40</sup>ga aylanish holatini kuzatishimiz mumkin.

Quyida qisqacha anaforalarning bir nech turlarini ko‘rib o‘tamiz. Rus matn lingvistikasida anaforaning leksik, tovush ohangdorligidan iborat, morfemik, sintaktik, strofik (qatorli), ritmik va pauzali (to‘xtamli) shakllar farqlanadi<sup>41</sup>. Rus lingvistikasida mavjud bo‘lgan frazemalardan misollar olgan holda ularning statistikasini chiqarishga harakat qilamiz.

		Fonetik anafora	Leksema	Morfologik tizimdagi o‘rniga baho berish	Sintaktik konstruksiyali
1.	Будь смелым. Будьт е кратки. Уходи.		+	Fe’l	Predikativ anafora
2.	Будь большим или отправляйся домой	+ “o” quyi keng, lablangan, orqa qator	–	–	–
3.	Займись жизнью или займись смертью.		+	Fe’l	Predikativ anafora
4.	Дай мне свободу или дай мне смерть.	–	–	–	Predikativ xususiyatga ega, so‘z birikma konstruksiyali
5.	Будь ты проклят, если сделаешь это,	–	–	–	Predikativ xususiyatga

<sup>40</sup> <https://literarydevices.net/epiphora/>

<sup>41</sup> <https://b1.cooksy.ru/articles/leksicheskaya-i-sintaksicheskaya-anafora/>

	и будь ты проклят, если не сделаешь.				ega, so'z birikma konstruksiyali
6.	Будьте в безопасности. Будьте здоровы. Оставайтесь счастливыми.	–	–	–	Predikativ anafora
7.	Так много мест, так мало времени.	–	+	Ravish	Relyativ birikma
8.	Я хотел бы, чтобы я мог; Я хотел бы, чтобы я мог.	–	–	–	Kontekst shaklidagi anafora
9.	“Спрашивай не о том, что твоя страна может сделать для тебя – спрашивай, что ты можешь сделать для своей страны”.	–	–	Fe'l	Predikativ shaklidagi anafora
10.	Давайте много, давайте часто, давайте свободно.	–	–	Fe'l	Predikativ shaklidagi anafora
11.	Большая спешка приводит к большим потерям.	Bos hlan-g'ich to'rt tovush-	–	Sifat	Aniqlovchi

		ning qaytarig‘i			
12	Открытое сердце, открытый разум.	Bos hlan-g‘ich oltita tovush- ning qaytarig‘i	–	Sifat	Aniqlovchi
13.	Обезьяна видит, обезьяна делает.		+	Ot	Ega shaklidagi anafora
14.	Беги далеко, беги быстро.	–	–	Fe‘l	Predikativ shaklidagi anafora
15.	Обмани меня один раз, позор тебе. Обмани меня дважды, позор мне <sup>42</sup> .	–	–	–	Predikativ xususiyatga ega, So‘z birikma konstruksiyali

Yuqorida biz umumiy 15 ta anafora qatnashgan hikmatli gaplarga misollar keltirgan holatida ularning quyidagicha statistikasini keltirib chiqardik. Ya’ni umumiy olganda 15 ta misolga kontekstda:

1. 3 ta gap tarkibida fonetik anaforalarning ishtiroki;
2. 4 ta gap tarkibida leksik anaforalarning ishtiroki;
3. 5 ta gapda Fe‘l shaklidagi, 2 ta gap tarkibida sifat, 1 tadan gaplarda ot va ravish turkumlariga xos bo‘lgan anforalarning ishtiroki;
4. Aksariyat gaplarda predikativli, egali, so‘z birikma konstruksiyali anaforalarning ishtiroki kuzatiladi.

<sup>42</sup> <https://literarydevices.net/anaphora/>

Basharti, gap ogʻzaki va yozma nutq vositalari haqida borar ekan, anaforaning tuzilajak frazaviy birliklarga ritm berishini alohida qayd etmoq darkor. Ogʻzaki nutq jarayonida usbu sanʼatndan foydalanish maʼlumotni qabul qiluvchi auditiroyaning emotiviga taʼsir koʻrsatgan holda motivatsiya beradi va ularni ruhlantiruvchi kuchga ega boʻladi. Qaytariqning bu tarzda, inversivligi hamda leksema, leksema shakl, soʻz birikmali konstruktivligi yozma nutqni taʼsirchanligini oshiradi va auditoriyani oʻziga jalb qila oladi va kutilmagan taassurot qoldiradi. Tarixdan maʼlumki, mashhur notiqalar oʻzlarining nutqlarini yanada taʼsir doirasini kuchaytirish maqsadida aksariyat anaforik shakliy munosabatlardan foydalanganlar. Xuddi shunga oʻxshagan hikmatli soʻzlardan misollar keltirib tahlil qilib oʻtamiz. Masalan. *“Biz keldik, biz koʻrdik, biz oldik (gʻolib boʻldik) [Rim Senatiga Yuliy Sezar tomonidan yozilgan maktubdan]”*. Baʼzi hollarda jahon lingvistikasida anaforaning oʻrnini belgilashda ushbu anaforik shakl qatnashgan birliklarni asliyatida koʻrsatmoq darkor: *“Возвращайтесь в Миссисипи, возвращайтесь в Алабаму, возвращайтесь в Южную Каролину, возвращайтесь в Джорджию, возвращайтесь в Луизиану, возвращайтесь в трущобы и гетто наших северных городов, зная, что каким-то образом эта ситуация может и будет изменена”*. [kichik *Мартин Лютер Кинг maktubidan*] va ayni shunday holatda misollarning berilishi anaforaning oʻziga xos qirralarining barchasining namoyon boʻlishiga sabab boʻladi. Eli Vizel tomonidan aytilgan fikrda anafora ega vazifasida kelgan ot soʻz turkumiga tegishli holatida namoyon boʻlgan: *“Безразличие не вызывает никакой реакции. Безразличие - это не ответ. Безразличие - это не начало; это конец. И, следовательно, безразличие всегда является другом врага, поскольку оно приносит пользу агрессору, а не его жертве, чья боль усиливается, когда он или она чувствует себя забытым”*. Ushbu matn tarkibida anaforik ega *“Безразличие – loqaydlik”* birligi orqali ifodalanayotganini koʻrish mumkin.

Takrorlar sheʼriy matn boshida ham oxirida ham qoʻllanishi mumkin va sheʼrlarni taʼsirchan va hissiyotga kengroq yondashishga yordam beradi. Anafora har qanday uslubiy takrorlash singari, sheʼrni yanada oʻtkir va taʼsirchan qiladi,



matnning o‘ziga xos leytmotivi bo‘lib xizmat qiladi va shoirning o‘ziga xos ovozi bo‘lib, uning ruhiy va hissiy holatini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, ushbu anaforalar eng muhim tuyulgan fikrlarning semantik ta’kidlanishi uchun sintaktik tuzulishi bilan farq qiladigan yaxlit butun tuzulmalarni birlashtirish uchun zaruriy vositadir.

**Yana** bir yillik sog‘inch bilan  
Tukli o‘tlar yerga egilib,  
**Yana** tumanli daryoning narigi tamonida  
Siz menga uzoqdan qo‘ng‘iroq qilasiz  
(*A.Blok*)

Ushbu misralarda “yana” leksemasi orqali ifodalangan anafora uchraydi va bu she’rning leytmotivini oshirishga xizmat qilgan. Nafaqat jahon adabiyoti, balki, o‘zbek adabiyotida ham shoirlar ijodida anaforaga duch kelamiz. Shoir Hamid Olimjon ijodida ravish turkumiga oid birliklari vositasida anaforani ko‘rib o‘tamiz.

Misol:                   **Endi** odam quldek sotilmas  
                                 **Endi** odam o‘tga otilmas  
                                 **Endi** unga qafas bo‘lmas jon,  
                                 **Endi** dunyo bo‘lmaydi zindon  
                                 (*Hamid Olimjon*)

Ushbu she’rda “endi” leksemasini misra boshida keltirilishi insonlarning hayotdagi tutgan o‘rni va uning ruhiy-hissiy ifodalarining keng qamrovini ko‘rsatishga xizmat qilgan. Yoki “Zaynab va Omon” asaridagi qahramon Sobir nutqida hamda Usmon Azim ijodida ham uchratamiz. Quyida kengaygan anafora shaklini ko‘rib o‘tish mumkin bo‘ladi:

**Men seni deb** azoblarga urdim bosh  
**Men seni deb** xatolarga qayrildim  
**Men seni deb** gunoh bo‘ldim, bag‘ri tosh  
**Men seni deb** bu dunyodan ayrildim

She’rdagi kengaygan takror ya’ni anafora so‘zlarning alliterativligiga xizmat qilgan. Anaforalar haqida turli ilmiy manbalarda bir-birini inkor etmaydigan

muayyan fikrlar<sup>43, 44</sup> berilgan, rus tiliga oid adabiyotlarda anaforaning misralar boshidagi takror “**Блажен**, кто смолоду был молод, **Блажен**, кто вовремя созрел...” [Pushkin], misralarning to‘liq takrori («**Люблю лебедей**, Холодных и чистых, как Ладога.// **Люблю лебедей**, Светящихся белыми лампами.//**Люблю лебедей**...»), qisman fonemalar ohagdorligi (**Грозой** снесенные мосты, **Гроба** с размытого кладбища), morfem anafora, leksik anafora, sintaktik konstruksiyali (“**Есть книги**, которые читаются; **есть книги**, которые изучаются терпеливыми людьми; **есть книги**, что хранятся в сердце нации”). [Л. Леонов]) hamda strofik anaforalar farqlanadi<sup>45</sup>. Prof. Azim Hojiyev anaforani ta’riflar ekan, uning (yun anafora – yuqoriga chiqarish) parallel tuzilgan nutq parchalari (mas, misralar) boshida aynan bir unurning takrorlanishidan iborat uslubiy qo‘llanish sifatida va unga zidlik sifatida epifora haqida gapirib o‘tadi. Y.To‘ychiyev esa anaforaning fonetik, leksik, sintaktik, strofik (misraviy) turlarini farqlaydi va qat’iy tizimli takrorlardan biri ekanligini, sababi anaforada qanday birlik takrorlanishidan qati’y nazar she’riyatda misralar boshida, nasrda gaplar boshida takror kelishini ta’kidlaydi<sup>46</sup>.

**Kimdir** dunyo jamlaydi,

**Kimdir** dovrug‘ taratar .

**Kimdir** elni yamlaydi,

**Kimdir** elni yaratar

Dunyo esa hisobli!

Bari ayon tangriga

**Kimni** yutar qaro yer

**Kimni** olar bag‘riga ( U.Azim)

“Kimdir” so‘zi uslubiy bo‘yoqdorlikni oshirishga qaratilgan va yuqoridagi misollardan ko‘rib o‘tish mumkinki, aksariyat hollarda olmosh so‘z turkumi

---

<sup>43</sup> A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. UzMU, 2002. B. 14.

<sup>44</sup> Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili. – Toshkent, Fan, 2007. B. 9..

<sup>45</sup> <https://ruskiypro.ru/chto-takoe-anafora/>

<sup>46</sup> To‘ychiyev Y O‘zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari T. Yangi asr avlodi 2011. B. 93.

vositada anaforalarning yuzaga kelishini, pirovardida she'riy matnlarda subye'ktiv munosabatlarning birinchi planga chiqishini kuzatishimiz mumkin.

She'riyat takrorining ko'plab turlari mavjud bo'lib, anafora takrori badiiy – uslubiy usullardan biridir. Anaforani hosil qiluvchi birliklar – tovush, so'z va so'z birikmasi bo'lib, bunday takrorlar ma'lum bir bandda, umuman, she'rda yuzaga kelishidir. Band doirasidagi anaforalarda bandning turli misralari boshida takrorlar mavjud bo'lsa, she'rning turli qismlarida qaytarilgan birliklar sher miqyosidagi anaforani hosil qilgan<sup>6</sup>.

**Tobora** so'zim manzur,

**Tobora** qo'shiq mashhur

Kuzak **tobora** bekam .

**Tobora** yurak mastur...

**Tobora** yaram chuqur,

**Tobora** zindon teran

Birinchi gapda qo'llangan ayrim affikslar so'z, so'z birkmasi yoki gaplarning keyingi komponentlari tarkibida takroran qo'llanishi orqali matn shakllantirilishi mumkin. Takror usulidan aytilayotgan fikrni alohida ta'kidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi. Nutqning ta'kidliliigi, uslubiy-ekspressivligi, ta'sirchanligi ortadi.

**Turmush tashvishlari**

**Turmush tashvishlari,**

Biz sendek balandroq tura olsaydik,

Biz sendek balandroq yura olsaydik,

Balki o'ng'ayardi dunyo ishlari, Turmush tashvishlari, Turmush tashvishlari  
(A.Oripov)

Takrorlar qo'llanish o'rniga ko'ra gorizantal va vertikal takrorlarga bo'linadi. Bunday takrorlar, ayniqsa, she'riy matnlarda o'ziga xos ohangdorlikni yuzaga keltiradi. Anafora, har qanday uslubiy takrorlash singari, she'rni yanada o'tkir va ta'sirchan qiladi, matnning o'ziga xos leytmotivi bo'lib xizmat qiladi va

shoirning o‘ziga xos ovozi bo‘lib, uning ruhiy va hissiy holatini tushunishga yordam beradi<sup>47</sup>.

Shuningdek, trop eng muhim tuyulgan fikrlarning semantik ta’kidlanishi uchun, sintaktik tuzilishi bilan farq qiladigan yaxlit butun tuzilmalarni birlashtirish uchun zarurdir. Bu nafaqat she’riy texnika, balki anafora nasrda ham murakkab jumlar, iboralar paragraflar qismlarini takrorlashda ham uchraydi. Masalan: “Barcha xilma-xillik, **go‘zallik va go‘zallikning** barchasi soya va nurdan iborat”. (L.Tolstoy) yoki shuni tan olish kerakki, *sevgi* xuddi *sevish* kabi istakni keltirib ... Unda ko‘proq *hayotiylik* bor<sup>48</sup>.

Potebnya<sup>49</sup> fikriy obrazlilikni vujudga keltiruvchi vositalar sifatida trop va figuralarga murojaat qilib, ayni poetik figuralar obrazlilikning boshlanishi ekanligini, shuning uchun matn obrazlilikni talab qilar ekan trop va figuralardan foydalanish lozimligini uqtiradi. Troplarning o‘z navbatida eng ko‘p tarqalgan turlari: istiora (metafora), metonimiya, sinekdoxa, majoz (allegoriya), kinoya, sifatlash (vasf, epitet), kichraytirish (litota), mubolag‘a (giperbola), jonlantirish (tashxis, intoq), perifraz<sup>50</sup> o‘z ichiga olsa, figuralarning takror, anafora, ironiya, antiteza, refren, graditsiya, va boshqa hodisalarni qamrab oladi.

Har ikki trop va figuralar barchasi obrazlilikni to‘laroq namoyon etishda nutqning jarangdorligiga xizmat qiladi. Prof. B. Umurqulov ushbu misollarning g‘arb adabiyotida uchrashini, ovozning – bir xil tovush kombinatsiyalarining, ya’ni alliterativlik ta’siridagi takrorlar va ko‘makchi morfemalarning takrorlaridan kelib chiqishini ta’kidlaydi<sup>51</sup>.

“**Bo‘ron** tufayli **buzilgan** ko‘priklar,

*Yuvilgan* qabristondan tobutlar”

(A.Pushkin)

---

<sup>47</sup> M.Yo‘ldoshev.S.Muhammedova ,M.Saparniyozova ,Matn lingvistikasi T.2020 B. 46-47.

<sup>48</sup> <https://minikar.ru/uz/prayers/nastoyashchaya-lyubov-v-zhizni-cheloveka-kakaya-ona-nastoyashchaya-lyubov/>

<sup>49</sup> Потебная А.Эстетика и поэтика М.1976. С. 45.

<sup>50</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Trop>

<sup>51</sup> Umurqulov Bekpo‘lat .O‘zbek badiiy nasrining lingvo-uslubiy shakllanishi asoslari. – Toshkent, 2020.

Leksik va morfemik takrorlar nafaqat badiiy adabiyotda, balki og‘zaki nutqiy janrlarga oid bo‘lgan matnlarda ham uchrashi mumkin. Mahalliy aholi tomonidan urush davriga oid voqealar qamralgan suhbatlar yig‘ilgan matnlarda asosan sintaktik konstruksiyali takrorlarni kuzatish mumkin, bu holatni yozib olingan suhbat orqali ko‘rib o‘tish mumkin: tushunmadim qanday adashihi mumkin? - Ü vāxti kim emajəpti, kim ketəjapti, qaramayan-də, qātti işəgan. Plān (reja) boyan (Uvaxti kim emayapti, kim ketayapti, qaramag‘an-da, plon bo‘g‘an, qatti ishag‘an).// Āldīnlari kōrpə, kōrpəčə, yājbōjilar kəm bōgən, māmālar mällardīn terisidən pōstək qīgan, əsali pōstək (ənəvū ranləb qīladi) kelinlərgə berilgičijdi. [Aldinlari ko‘rpa, ko‘rpacha, joybo‘yilar kam bo‘gan, momolar mollardīn terisidan po‘stak qigan. Asali po‘stak (anavu ranglab qiladi) kelinlarga berilgichiydi<sup>52</sup>. Matndan ko‘rinadiki, sheva vakillari o‘z suhbatlarida emotsional-ekspressiv, ta‘kidiylik nuqtayi nazaridan sintaktik konstruksiyali takrorlardan ko‘p o‘rinlarda foydalanadilar.

Shu bilan birgalikda takrorlarning anaforik shakli asosan etnik aholi shevalaridagi barqaror birikmalarida ham kuzatish mumkin: **Qul qudrasə quduqqa** čičadi. Misoldan ko‘rinib turibdiki, matnda fonematik anaforani til orqa, portlovchi, jarangsiz “q” va yuqori tor, lablangan, tor orqa “u” fonemalari yuzaga keltirgan gan bo‘lsa-da, matndagi uzviylikni til oldi, yuqori tor, lablanmagan “i” fonemasi davom ettiradi. Cimičaq qiziņ **bir qiz bōpti, bir qiz bōpti**: zūzūkdiņ közidāy (nihoyatda go‘zal);// **zāman** gəpdən **zān** qutulmas (yomonlikdan kamol yoqligi); **zanig‘anning zarti** qīz; // **Birāv** būrāp gāpirər, **birāv** qarap gāpirər. (turli fe‘lli kishilarga ishora)<sup>53</sup> kabi misollarda yuqoridagi takroriylik davom etgan.

## **1.2. Kontrastning jahon adabiyoti she‘riy matnlarda semantikasidagi nominativligi**

Kontrast – Kontrastlik (frans. Kontraste – keskin ifodalangan qarama qarshilik (psixologiyada ob‘yektlar yoki ularning bir qismidagi tafovutlarning

<sup>52</sup> Холова М. А. О‘zbek shevalarining standart tilga munosabati va til tizimidagi o‘rni (Boysun tumani “j” lo‘vchi shevalar misolida) //Международный журнал искусство слова. – 2020. – Т. 3. – №. 5.

<sup>53</sup> Холова М. А. Шевалар корпусининг жанрий теглашининг лингвистик асослари //Международный журнал искусство слова. – 2021. – Т. 4. – №. 4.

sub'yektiv ravishda oshirib idrok etilishi, qarama-qarshi sifatga ega bo'lgan avvalgi yoki bir vaqtdagi qo'zg'alish tufayli sezgirlikning o'zgarishidir. Masalan, qora rang piktografik tabiiy qabul qilinsa-da, oq rang oldida yana ham qoraroq ko'rinadi yoki issiq narsaning kuchini sezish jarayoni orqali sovuqqa sezgirlik kuchayadi. Odatda, birinchi signal sistemasiga kiruvchi ko'rish, eshitish, tana sezgilari tafovutli jihatlari bilan voqelik, moddiylikdan keskin ajralib turishi mumkin. Ya'ni ko'rishda, eshitishda, tasviriy ifodalarda insonning olamning lisoniy manzarasini qabul qilishi yorug'lik, rang, hajm, ko'lam jihatidan hissiy (timsollar, tasvirlar, obrazli va aqliy, mavhumiy so'z, tushuncha qonuniyat tariqasida) tarzda namoyon bo'ladi hamda jismlar, hodisalar o'rtasidagi farqlanuvchi alomatlarni birlashtiradi.

Bu hol esa inson idrokida timsolning qarama-qarshisi paydo bo'lishiga olib keladi. Agarda inson "shirin" leksemasini xayoliga keltirsa, unga kontrast bo'lgan "achchiq" beixtiyor yodga tushadi. Odam "tinchlik" tushunchasini o'z nutqida qo'llasa, beixtiyoriy tarzda "urush" tushunchasi unga qarshi gavdalanadi<sup>54</sup>. Insoniy xarakterning o'ziga xos ijobiy xususiyatlari yuzasidan mulohaza yuritilsa, albatta, illatlari ham idrok qilinadi. Ko'pchilik insonning salohiyati aql-zakovati, turmush tajribasi, umumiy saviyasi, tabiat va jamiyatga nisbatan munosabatiga bog'liq qonuniyat sifatida ijtimoiy hayotda vujudga kelaveradi hamda hukm suraveradi.

Kontrast atamasi she'riyatda qarama-qarshilik bu yaqinlashish prinsipi va ekvivalentlik asosida tashkil etilgan targ'ibot turlaridan biri sifatida belgilanadi, uning mohiyati badiiy asardagi personajlar hodisalar, narsalar va ularning xususiyatlarining qarama-qarshiligidan iborat voqelikni yorqin aks ettiradi. Qarama-qarshilik she'riy matnda qarama-qarshilik kategoriyasini o'ta o'xshashlik, boshqasidan keskin amalga oshirish vositasidir. Kontrastning lingvistik shakllantirilishi qarama-qarshiliklar nazariyasidir. Qarama-qarshilik turli xil ikkilik qarama-qarshiliklarda o'z ifodasini topadi; fonetik, morfologik, leksik, sintaktik,

---

<sup>54</sup> Safarovna S. N. Oksyumoron haqida mulohaza //Innovation: The journal of Social Sciences and Researches. – 2023. – T. 1. – №. 4. C. 131-134.

stilistik, ekstratekst va matni semantik-stilistik tashkil etish turlaridan biri sifatidadir.

Qarama-qarshilik inson tafakkurining asosiy qonunlaridan biri – qarama-qarshiliklar nisbati orqali dunyoni bilishning aksi bo‘lib, badiiy adabiyotda yozuvchi uslubining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u yozuvchining turli xil badiiy vositalar yordamida yaratilgan. Voqelikni qarama-qarshi idrok etish. Og‘zaki qarama-qarshilikning turli shakllari badiiy nutq vositalarining murakkab tizimini tashkil qiladi.

Badiiy tafakkuri hayotni real, obyektiv idrok etishdan kelib chiqqan urushdan keyingi davr mualliflari kontrastdan qahramonlar obrazlarini yaratish, ularning qarama-qarshiligi, personajlarning nutqiy xususiyatlari, hayotning turli turlarini takrorlash, o‘z-o‘zini o‘zi boshqarish vositasi sifatida foydalanadilar. Nafaqat inson tafakkurining qutbliligini, balki ijtimoiy hayotdagi qarama-qarshiliklarni ham aks ettirgan holda o‘tmish, hozirgi va kelajakni aks ettirish va aks ettirish. Shaxs (ya’ni asar qahramoni) badiiy makon va zamon bilan bir qatorda badiiy obrazning asosiy ob’ekti bo‘lganligi sababli, shuni ta’kidlash kerakki, badiiy matnning mazmun xususiyati uning mutlaq xususiyatidir. Zamonaviy fanning antropotsentrizmi og‘irlik markazini tilning umumiy tizimli qonuniyatlarini o‘rganishdan lingvistik shaxs namoyon bo‘lishining individual nutq o‘ziga xosligini o‘rganishga o‘tkazadi.

Uilyam Bleykning “Jaholat va bilim qo‘shiqlari” asarida qarama-qarshilik tipologiyasini ko‘rib chiqishga alohida e’tibor beriladi, chunki aynan shu shoir ijodida qarama-qarshilikning barcha turlarini topish mumkin

Sh.N.Komissarov, L.A.Vvedenskaya, L.A.Novikov, Y.D.Apresyan kabilar ayni vaqtga qadar tilda qarama-qarshilik kategoriyasini aks ettirish muammosi leksik antonimiya hodisasi bilan yoki tavsifi bilan bog‘lanib kelishgan<sup>55</sup>. I.R.Galperin, L.T.Ba-Oaxanova, E.A.Atayeva, N.N.Zolina, V.Ya.Pastuxovalar

---

<sup>55</sup>Galperin I. R. Some Principal Issues of Style and Stylistics as Viewed by Russian Linguists //Style. – 1971. C. 1-20. –P. 16.

tomonidan kontrastning antiteza va oksimoron kabi stilistik vositalari sifatida<sup>56</sup>, Y.M. Skrebnev, M.P. Brandes, A.N. Moroxovskiy, S. Ulman kabilar esa o‘z qarashlarida yuqoridagilardan tashqari “qarama-qarshi figuralar” atamasi ishlatishgan.

Kontrast N.S.Trubetskoy, C.Ogden, R.Y.Yakobson, Y.M.Lotman kabilarining asarlarlarida murakkab hodisalardan biri sifatida e’tirof etilgan, N.D.Arutyunova uni sof texnik texnika sifatida, V.V. Odintsov nutqni rivojlantirishning kompozitsion va stilistik printsiplari sifatida, olim L.A. Matvievsckaya stilistik vositalar tizimi sifatida, G.F.Denisova trop sifatida qayd etgan.

Olimlar M.V.Nikitin, E.I.Zueva fikricha zidlik nafaqat stilistik, leksikologik va semasiologik jihatdan, balki LI.Timofeev, V.V.Vinogradov, I.K.Beloded, E.P.Andreeva, E.Dobin fikriga hamohang adabiy tanqidga ham bog‘liq holda o‘rganilgan<sup>57</sup>.

N.A. Postolovskaya, I.V. Arnold, G.V. Andreeva<sup>58</sup> kabi olimlar kontrastning nominativ turlardan biri hisoblab, hozirgi vaqtda uni o‘rganishning yangi dekodlash uslublari va yondashuv kelib chiqayotganligiga e’tibor qaratishgan. She’riy matndagi kontrast targ‘ibot turlaridan biri sifatida mazmunning eng muhim elementlarini ta’kidlab, matnning ifodaliligi va yaxlitligini ta’minlaydi. Sarlavha kontrasti, she’rlar siklidagi va undan tashqaridagi sarlavhalarning qarama-qarshiligi, epigraf va matn o‘rtasidagi kontrast, she’rning boshi va oxiri o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar uchrashini ta’kidlaydi:

Men ketgan so‘ng uydan chiqib o‘tirma,

***Do‘st yig‘latib, dushmanimni kuldirma***<sup>59</sup>.

Yoki:

Sen o‘zingdan gap qolarmi, Huroyim?

---

<sup>1</sup>Galperin I. R. Some Principal Issues of Style and Stylistics as Viewed by Russian Linguists //Style. – 1971. C. 1-20. –P. 5.

<sup>57</sup> Timofeev L. I. Osnovy teoriiya literatury //Moskva, Prosveschenie, 1976. – B. 197.

<sup>58</sup> Шер Д. К. Идентификация и анализ контраста как дискурсивного отношения //Вестник Челябинского государственного университета. – 2020. – №. 1 (435). С. 181-187.

<sup>59</sup> Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li “Rustamxon” dostoni. –T.: 2021. B. 7.



*O'g'il* tug'sang, otin qo'ygin Rustamxon,

*Qiz* tug'sang, gul yuzli, o'zing bilasan

An'anaviy qabul qilingan leksik qarama-qarshilik vositalariga – antonimlar va stilistik kontrast [chet el adabiyotlarida equinames, conversives, genus-correlates – ikkinchi qismi o'zgartirish mumkin bo'lgan birliklar sifatida berib o'tilgan] – antitezis (katta va kichik, urush va tinchlik), oksimoron (qayg'uli shodlik, shirin azob, aqlli ahmoq) va boshqalar – kontrast barcha boshqa darajalarda qo'shilishi kerak: fonetik, morfologik, sintaktik, grafik. Poetik kontekstda sher syujeti, kompozitsiyasi, obrazli tizimi va ramziyligidagi qarama-qarshiliklar ham katta ahamiyatga ega. Kontrast nafaqat matn ichida, balki matndan tashqarida ham amalga oshiriladi. Bu bizga matndan tashqari yoki matndan tashqari kontrast tushunchasini va uning kichik turlarini kiritish imkonini beradi: bir muallifning asari doirasidagi masofaviy kontrast, adabiy va ijtimoiy kontrast, matnlararo kontrast va ikki yoki undan ortiq semiotik tizimlar ichida sinkretik kontrast.

Hozirgacha tilda qarama-qarshilik kategoriyasini aks ettirish muammosi leksik antonomiya hodisasi (Sh.N.Komissarov, L.A.Vrudenskaya L.A. Novikov, Yu. D. Apresyan) yoki tavsifi bilan bog'lanib kelgan. Kontrast atamasi qo'llanilgan asarlarda ushbu murakkab hodisaning faqat ma'lum jihatlarini ochib berdi: qarama-qarshilik o'ziga xos qarama-qarshilik sifatida<sup>60</sup> S.Trubetskoy, C.Ogden, R.Y. Yakobson, K.A.Dolonin, Yu .M.Lotmon kabi olimlar o'rganishgan.

Olima S.Safarova kontrastni o'zida aks ettirga oksyumoronlarning leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra antonimlarga o'xshashini, ammo ularning nutq ko'rinishlarida qo'llanish immoniyatlari, maqsadi hosil bo'lish usuli hamda vazifasiga ko'ra bir-biridan farq qilishin, badiiy-estetik ta'sirchanlik vazifasi poetik matnlarda yaqqol namoyon bo'lishini aytib o'tib, shoir U. Azim ijodida keltirilgan "yumshoq nur", "do'zaxiy jannat", Azim Suyun ijodidagi "muz nuri" kabi

---

<sup>60</sup> Riches S. F. et al. Multivariate modelling of prostate cancer combining magnetic resonance derived T2, diffusion, dynamic contrast-enhanced and spectroscopic parameters //European Radiology. – 2015. – T. 25. P. 1247-1256.

noodatiy birikmalarga to‘xtaladi va individual oksyumoronlar sifatida e’tirof etadi<sup>61</sup>.

Kontrast nafaqat matn ichida, balki matndan tashqarida ham amalga oshirilishi mumkin. Ya’ni matndan tarkibida kontekstdan tashqarida kontrast tushunchasini va uning kichik turlarini kiritish imkonini beradi va kontrastning: masofaviy kontrast, adabiy va ijtimoiy kontrast matnlaro kontrast va ikki yoki undan ortiq semyotik tizimlar ichida sinkretik kontrast kabi turlarini yuzaga keltiradi.

Kontrastni S. Andreeva stilistik qurilma tushunchasidan ancha kengroq talqin qiladi, chunki qarama-qarshilik tamoyili asosida tashkil etilgan tilning ham me’yoriy ham ekspressiv vositalari kontrastni amalga oshirishda ishtirok etadilar. Romantik she’riyatda yozuv turidagi so‘z birikmalari ko‘pincha uchraydi.

„Kulish va xo‘rsinish“, „quvonch va qayg‘u“, „zulmat va yorug‘lik“, „ishq va ishqsizlik“, „o‘lim va hayot“, „yiqilish va turish“, „aql va ongsizlik“, „kecha va kunduz“, „tun va kun“, „quyosh va oy“, „aybsizlik va aybdorlik“, „baland va past“, „nam va quruq“ leksemlari yoki nominativ xarakterga ega „Zumrad va Qimmat“, „Muqbil va Mudbir“, „Egrivoy va To‘g‘rivoy“ kabi asarlar kontrastga yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu muvofiqlashtiruvchi teng bog‘lanishli birliklarda qarama-qarshiliklarni tashkil etuvchi juft qarama-qarshiliklar bir vaqtning o‘zida qarama-qarshiliklar bir vaqtning o‘zida qarama-qarshilik ma’nosini birining ikkinchisiz bo‘lishi mumkin emasligini anglatadi.

Endi qarama-qarshilikni gap konteksida ko‘rib chiqishga o‘tamiz. Qarama-qarshi leksik tarkib gapning har xil turlarida xizmat qilishi mumkin; sodda, birlashmagan murakkab, qo‘shma va bog‘lovchili qo‘shma va bog‘lovchili qo‘shma, qarama-qarshi leksik birliklar qoida tariqasida, gapning bir jinsli a‘zolarining o‘rni va sintaktik jihatdan teng pozitsiyalarda bo‘ladi<sup>5</sup>.

---

<sup>61</sup> Safarovna S. N. Oksyumoron haqida mulohaza //Innovation: The journal of Social Sciences and Researches. – 2023. – T. 1. – №. 4. C. 131-134.

Qarama-qarshilik birliklarning sintaktik aloqasining tipik vositalari sifatida zidlov kontrastini yuzaga chiqaruvchi til birliklari<sup>62</sup> sifatida quyidagilarni ko'rsatishni ma'qul topdik:

1. –u, -yu, -da bog'lovchi yuklamalar yordamida bog'lanish.
2. “ammo”, “lekin” va “biroq” kabi zidlov bog'lovchilari yordamida bog'lanish.
3. “yoki”, “yo”, “yoxud”, bog'lovchilari vositasida amalga oshmaslikni yuzaga keltiruvchi bog'lanish.
4. “agar” mumtoz adabiyotda “garchi”, “garchand”, “gar”, “harchand”, “magar”, “basharti” kabi ergashtiruvchi bog'lovchilari vositasida shartlik mazmuni bilan bog'liq voqelikning mantiqan yuzaga chiqish chiqmasligini aniqlovchi bog'lanish.
5. “hali”, “hanuz”, “faqat”, “aksincha” “zero” kabi yordamchi birliklardan foydalanilgan holda bog'lanish.
6. Zidlik munosabatidagi ohang vositasida bog'lanish.

### **1.3. Takror va uyg'unlikka asoslangan she'riy san'atlarning mumtoz adabiyotdagi tutgan o'rni.**

Tilshunoslikning matn lingvistikasi va badiiy adabiyot sohasida takror – bu matn, kompozitsion yoki mavzuviy birliklarning ma'lum bir estetik, badiiy maqsadni ko'zlagan holda takrorlanishidir. Takrori adabiyot va lingvistikaning turli sathlarda: fonetik (anafora, assonans, ishtiyoq, fonetik anaforiya); leksik (klimaks, anafora, epifora, anadiplosis va hokazolar); semantic (gradatsiya); sintaktik (xiazm, sintaktik parallelizm); ritmik birliklarning o'lchov asosida tartibli takrorlanishi: turoq (rukni), misra (bahr), band; she'riy kompozitsiya darajasida: misraviy takror (refren, tarje), band takrori (naqorat); obrazli mavzuviy takror (mavzuviy parallelizm, motiv) shaklida kuzatish mumkin.

Takrori zamonaviy lingvistikada bugunning hosilasi deya qarab bo'lmaydi, mazkur jarayonni qadimgi turkiy adabiy tili, eski turkiy adabiy tili, eski o'zbek

---

<sup>62</sup> Умуркулов Б. Бадий адабиётда сўз.– Тошкент, Фан, 1993.

adabiy tili davrlariga nazar soladigan bo‘lsak, juda qadimgi til davrlariga borib taqalishini kuzatishimiz mumkin.

Masalan, qadimgi turkiy til davriga tegishli “To‘nyuquq” asarini oladigan bo‘lsak, unda “*Turk bo‘dun qanin bulmayin Tabg‘achda **adrilti, qanlanti.**// Qaningin qo‘dub ichikding, ichikduk uchun tangri «o‘l» tamis arinch, turk bo‘dun **o‘lti, alqinti, yoq bo‘lti.**// Kayik yayu, tabisg‘an yayu o‘lurur artimiz. **Bo‘dun bo‘g‘zi to‘q arti.**// Turk bo‘dun **o‘lurg‘ali, Turk qag‘an o‘lurg‘ali, Shantung baliq(q)a, taluy o‘guzka tagmis yo‘q armis**”<sup>63</sup> kabi misollardan takror asosiy tasvir vositalaridan biri bo‘lganligini qayd etmoq joizdir. Va bunda takrorning fonetik shakliy [**Bo‘dun bo‘g‘zi**], leksema shaklida [**yayu, o‘lurg‘ali**], morfema shaklida [**adrilti, qanlanti**] kabilarni tahlil qilgan holda lingvistikaning turli sohalarida takrorning misollari sifatida o‘sha davr tilining turli qirralarini ochish uchun o‘rganish obyekti vazifasini o‘tay olishini ta‘kidlaymiz.*

Eski turkiy til davriga oid “Devonu lug‘otit turk” asarlarida keltirilgan hikmatli so‘zlar tarkibini tahlil tortganimizda, ularda ham takrorning turli o‘rinlarda qo‘llanishiga doir misollarni ko‘rib o‘tdik. Va unda bir misralik hikmatli so‘zlar tarkibida asosan unlilar uyg‘unligini, ikki misradan iborat hikmatli birliklarda esa ham misraviy, ham tagma-tag shakldagi takrorning guvohi bo‘lish mumkin. Masalan:

***Ko‘b** sukutga qush qo‘nar,*

***Ko‘rkluk** kishiga so‘z kelar*

*Uma **kelsa, qut** kelar*

*Kim **kur bo‘lsa, kuvaz bo‘lur.***

*Sabanda **sandrish bo‘lsa,***

*O‘rtugunda irtash bo‘lma<sup>64</sup> va hokazo.*

<sup>63</sup> <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/qosimjon-sodiqov-bilga-tonyuquq-bitigi.html>

<https://uz.wikipedia.org/wiki/To‘nyuquq> <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/qosimjon-sodiqov-bilga-tonyuquq-bitigi/>

<sup>64</sup> Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘ otit turk. I, II, III jildlar. – Toshkent. 1960-1963. B. To‘xliyev, B. Karimov, K.Usmonova 11-sinf adabiyoti. – Toshkent. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2018. B. 198. B. 68.

Bundan tashqari asarda bir vaqtning o'zida *unli tovushlar uyg'unligi* + *leksema* yoki *leksema* + *unli tovushlar uyg'unligi* takrorlarini aks ettirgan:

*Ashuch aytur tubum altun,  
Qamich aytur men qaydaman.*

*Tulum anutsa, qulun bulur,  
Tulum unutsa, bolun bo'lur.  
Kengashlik bilik uzlashur, kengashsiz bilik o'prashur.*

XIV-XV asrlar eski o'zbek adabiy tilining boshlang'ich davri hisoblansa-da, ayni shu davr nuqtayi nazaridan takror san'atining yuqori nuqtaga chiqqanini ko'rib o'tish mumkin. Ya'ni bu davrga kelib takrorning takrir deya baholab, badiiyatda emotsional-ekspessivlikni kuchaytirish maqsadida qo'llanilishiga e'tibor berishgan.

Takrir (arab – takror) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, bir so'zni baytning turli o'rinlarida takrorlash. Ayrim manbalarda raddning bir ko'rinishi deya baholansa-da, professor D. Quronov<sup>65</sup> uni raddan farqlash kerakligini, sababi takrirda so'zning qat'iy o'rni belgilanmaganligini: bitta leksema, so'z yoki morfemaning istalgan o'rinlarda takrorlanishi, takrirning badiiy-estetik vazifasi fikrni ta'kidlash, bo'rttirish bo'lib, mazkur san'at qo'llangan bayt (yoki sher) ohangi ham shunga mosdir. Muhammad Rahimxon Feruzning:

*Qilurman yutub shavqi la'lingda qon*

*Fig'on-u, fig'on-u, fig'on-u, fig'on-u* satrlarida takrir ma'noni kuchaytirish va shunga mos ohang qo'shib o'qishni talaffuz qilishni taqozo etadi. Bundan tashqari:

*Kechir, yanglishmagan kim bor, mening ham ko'p gunohim bor,*

*Odamzod asli nokomil, kechir, yo rab, kechir, yo rab,* baytida “**Kechir**” jumlasini iltijo ohangini kuchaytirishga, lirik qahramonning ruhiy holatini yorqin ifodalashga xizmat qilgan<sup>66</sup>.

<sup>65</sup> D.Quronov Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent. 2013. B. 306. B.lar. 406.

<sup>66</sup> D.Quronov Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent. 2013. B. 307. B.lar. 406.

Mumtoz adabiyotda takrorga asoslangan san'atlarning bir qator shakllari borki, bunda takrorning qati'iy me'yorlashtirilgan holatda akslanishini ko'rib o'tish mumkin. Baytlarda bir tovushlarning takrorlash orqali she'riy san'atga tavze' deyiladi. Tavze' (arab. tarqatmoq, taqsim qilmoq, joylashtirmoq) degan ma'noni bildirib, bir xil: unli va undosh tovushlarning takroriga asoslanganligi bilan izohlanadi. D.Quronov tavze'ga berilgan ta'riflarda ixtilof borligini, uning yuzaga chiqish shartlari sifatida faqatgina undosh tovushlarning takrori e'tiborga olinishini aytib o'tadi<sup>67</sup>. Ba'zi adabiyotlarda esa tavze'ga alliteratsiya yoxud assonans deya baho berishadi<sup>68</sup>:

Qaro qoshing, qalam qoshing,  
Qiyiq qayrilma qoshing, qiz.  
Qilur qatlimga qasd, qayrab  
Qilich qotil qaroshing, qiz...  
yoki  
Omon, omon, omon-ey  
Zamon-bizning zamon-ey<sup>69</sup>

Biz esa matn lingvistikasida fonetik anaforani borligini inkor etmas ekanmiz, ushbu holatni anaforik jarayon sifatida qabul qilish kerak deya ta'kidlaymiz. Takrordan hosil bo'luvchi samara shundaki, bir necha bora qaytalanuvchi tovush yoki tovushlar ketma-ketligi baytga o'ziga xos bo'lgan poetik ohang baxsh etadi. Masalan:

Oshiq o'ldim, bilmadim **yor** o'zgalarga **yor** emish,  
Oll**oh**-oll**oh**, ishq a**ro** munda**oq** bal**o**lar bo**r** emish. (*Navoiy*)

Ikkiligida qiyi keng, lablangan, til orqa lab garmoniyasiga ega bo'lgan til birligining 11 marta takrorlangan holda asosiy planga ko'tarilganligini ko'rib o'tish mumkin. Shu tufayli bayt g'oyat xushohang tinglangani hoida "o tovishining egallagan pozitsiyasi musiqiylikni, emotsional-ekspressivlikni kuchaytirishga

---

<sup>67</sup> D.Quronov Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent. 2013. B. 296. B.lar. 406.

<sup>68</sup> <https://multiurok.ru/files/sheriy-badiiy-sanatlar-haqida.html>

<sup>69</sup> <https://literarydevices.net/assonance/>

xizmat qilgan. Zamonaviy adabiyot vakili Mirzo Kenjabek ijodidan namuna keltirganimizda, uning ijodida hosil bo‘lish o‘rni va usuliga ko‘ra farqlanuvchi “s” va “q” tovushlaridan tavze vositasi sifatida unumli foydalanilgan:

Sekin-sekin suzardim suvdan so‘rab saodat,

Qalqa-qalqa qayig‘im qolmish sarob ichinda

Shuni qayd etmoq joizki, fonetik takror shunchaki mexanik shaklda emas, balki uyg‘unlik vositasida ritmik intonatsiyani kuchaytirgan holatda, kitobxonning tasavvur olamini kengaytiradi. Til odi, sirg‘aluvchi “s” tovushining o‘zi qayiqning sirg‘alishi bilan hamohang berilayotgan tasvirini ko‘z oldimizga keltiradi.

Mumtoz adabiyot tarkibida bir qator takrorga asoslangan yana shunday san‘atlar borki, bulardan biri radd – (*arab.* qaytarmoq) deya atalib, bir so‘zning turli o‘rinlarda qo‘llanishiga mumtoz adabiyotda *radd* san‘ati deyiladi va radd san‘ati istalgan so‘zning, qofiyaga olingan so‘zning yoxud to‘laqonli bir satrning qaytarilishiga asoslangan holda shakllanishi mumkindir. Quyida shunday san‘at turlarini yuzaga chiqaruvchi vositalar ishtirokidagi takrorlarni tahlilga tortamiz.

Radd ul-matla‘ (*arab.* matla‘ takrori) — g‘azaldagi matla‘a birinchi misrasining maqta‘dagi ikkinchi misrada takrorlanishi, g‘azalning birinchi misrasini uning oxirida takrorlanishini nazarda tutadi<sup>70</sup>. G‘azal birinchi baytining birinchi qatori yoki qasidaning birinchi bayti tarkibidagi misralardan birining so‘nggi baytda (ba‘zan oraliqdagi baytlardan birida) takrorlanishi ham raddi ul-matla‘ deb yuritilaveradi. Bunda g‘azal matla‘si yoki qasidaning birinchi baytida ilgari surilgan fikr-g‘oyani muallif keyingi baytlarda rivojlantiradi. Asar (sher) nihoyasida esa baytni takrorlash orqali o‘sha fikr-g‘oya, his, kechinma to‘lishadi, o‘z ifodasini yorqinroq ifodalanadi. Zero, matla‘ avvalgi misralar mazmunini o‘zida singdiradi, umumlashtiradi.

**Qaytarish san‘ati (radd — ul ajuz il-as-sadr yoki radd — ul ajuz min — as sadr)** — baytdagi mazkur o‘rinlardan biridagi so‘zning yana boshqa bir o‘rinda takrorlanishiga asoslanadigan san‘at. Qaytarish san‘atida quyidagilarni bilish lozim: Buni quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

---

<sup>70</sup> <https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=1786.20>

SADR	HASHV	ARUZ
IBTIDO	HASHV	AJUZ

Sadr — birinchi misraning boshlanishi;

Aruz — birinchi misraning oxiri;

Ibtido — ikkinchi misraning boshlanishi;

Ajuz (zarb) — ikkinchi misraning oxiri;

Hashv — misralarning oʻrta qismi sananladi.

Qaytarishga asoslangan sanʼatning soʻzlarning kelish oʻrniga muvofiq nomlanadi va quyidagi 12 ta turlari mavjudligini taʼkidlaymiz:

*1.Radd — us —sadr ilal —ibtido (bayt boshidagi soʻzning ikkinchi misra boshida elishi):*

**Husni** to huvaydo qildi xoliq,

**Husn** birla vafo boʻlmas muvofiq.

(Xorazmiy)

*2.Radd — ul — aruz ilal — ibtido (birinchi misra oxiridagi soʻzning keyingi misra boshida kelishi):*

Ne ravo boʻlgʻay bukim, mehrob ichinda **oʻlturub**,

**Oʻlturadur** men duochini koʻzung boqib turib.

(Xorazmiy)

*3.Radd — ul — aruz ilal — ajuz (birinchi misra oxiridagi soʻzning bayt oxirida kelishi):*

Kitobat boshladim anjoma **yetgay**,

“Muhabbatnoma” Misr-u Shoma **yetgay**.

(Xorazmiy)

*4.Radus — sadr ilal — hashv (bayt boshidagi soʻzning misra oʻrtasida kelishi):*

**Gunah** qildimki, hajringda tirildim,

Vale mendin **gunah**, sendin karamdur.

(Atoiy)



5.Radd — us — sadr ilal — ajuz (bayt boshidagi leksemaning baytning oxirida takrorlanishi):

**Uqush** bo‘lsa asg‘i edi — o‘q o‘qush,  
Qamug‘ edg‘ulik ulg‘u — ul bu **uqush**.

(Y.X.Hojib)

6.Raddul — hashv ilal ibtido (birinchi misra o‘rtasidagi leksemaning ikkinchi misra boshida qaytarilishi):

Qali edguka bo‘lsa, **esiz** eshi,  
**Esiz** baldi qilqi ul esiz tushi.

(Y.X.Hojib)

7.Radd — ul hashv ilal hashv (birinchi misra o‘rtasidagi so‘zning keyingi misra ichida qaytarilishi):

Ul sanamkim **suv** yaqosinda paridek o‘ltirur,  
G‘oyati nozukligindin **suv** bila yutsa bo‘lur.

(Atoiy)

8.Radd — ul hashv ilal ajuz (misra ichidagi so‘zning keyingi misra oxirida kelishi):

Ula nang kishika yetur ham ichur,  
Seni nang **kechur**gay, ani sen **kechur**.

9.Radd — ul aruz ilal hashv (birinchi misra oxiridagi so‘zning keyingi misra ichida ham kelishi):

Nektu ter eshitkil kur erdamlug‘ **er**,  
Bu erdam bila **er** tilak arzu yer.

(Y.X.Hojib)

10.Radd — us sadr ilal aruz (bayt boshidagi so‘zning birinchi misra oxirida kelishi):

**Jamoling** tek kishining yo‘q **jamoli**,  
Dareg‘o, bo‘lmasa erdi zavoli  
(Xorazmiy)

*11.Radd — ul ibtido ilal hashv (ikkinchi misra boshidagi soʻzning shu misra oʻrtasida kelishi):*

Boʻyung sarvu sanubartek, beling qil,

**Vafo** qilgʻon kishilarga **vafo** qil.

(Xorazmiy)

*12.Radd — ul ibtido ilal ajuz (ikkinchi misra boshidagi soʻzning bayt oxirida kelishi):*

Bu dunya ishi koʻr oʻyun — ul oʻyun,

**Oʻyun**qa qatilma nerak bu **oʻyun**<sup>71</sup>.

(Y.X.Hojib)

Mumtoz adabiyotda takrorlar turli xilda shakllangan turlarini koʻrib oʻtdik.

**Dissertatsiyaning I bobi yuzasidan quyidagi xulosalarni aytib oʻtish mumkin.** Birinchidan:

✓ rus tili tilshunosligida anaforaning keng qoʻllanishi tilning qurilishi bilan bogʻliq yuzaga kelgan;

✓ anafora ijodkor yoki shoirlarning sheʼrlaridagi soʻzlarga jozibador maʼno kasb etadi va sheʼriyatdagi anaforalar misralar boshida kelib, insonga estetik leytmotiv beradi;

✓ oʻzbek sheʼriy matnlarda soʻz boshidagi takrorlar, anaforaning aksariyat leksema shaklida kelishi kuzatiladi;

✓ Subyektivlikni koʻrsatish maqsadida ijodkorlar tomonidan asosan ichi boʻsh soʻz, yaʼni olmoshlardan foydalanish mumkinligi aniqlandi;

✓ anaforalarning nasriy matnlarda qoʻllanishi ularning emotsional ekspressivligiga, taʼsirchan va taʼkidiy fikrlarga boyitilishiga olib keladi;

✓ takroriylik nafaqat badiiy adabiyotning, shuning bilan birga oddiy ogʻzaki soʻzlashuv uslubiga oid shevalar tarkibida ham taʼkidiylik uchun xizmat qiladi.

Ikkinchidan, kontrastni rassomning voqelikni idrok etish usullaridan biri sifatida aniqlash mumkin. Bunday inʼiko XX asr ogʻzaki ijodi uchun xos boʻlib, u

---

<sup>71</sup> <https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=1786.20>

nafaqat muallifning dunyoqarashini ifodalaydi, balki XX asr yozuvchilari ongining o'ziga xos xususiyatlarini ham aks ettiradi. Badiiy ongda qutblarning bog'lanishi, qarama-qarshilik ko'rinishidagi ikki qarama-qarshi ma'noning to'qnashuvi o'z-o'zini bilish dinamikasini aks ettiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, urushdan keyingi davrning bir qator yozuvchilari ijodida kontrast matn va uning semantik dominantini qurishda kompozitsion va stilistik printsip sifatida ishlaydi. Tilshunoslikda kontrast tilning tasviriy vositalari hisoblanib nutqda, xususan, badiiy nasrda ularning har birining o'ziga xos o'rni bor. Kontrast matndagi kontrast turlaridan biri sifatida mazmunning eng muhim elementlarini ta'kidlab matnning ifodaliligi va yaxlitligini ta'minlaydi.

Uchinchidan, anafora she'riy san'ati bugun yuzaga kelgan hodisa emasligini biz qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o'zbek adabiy til davrlariga tegishli bo'lgan asar namunalari orqali takrorning turli xil ko'rinishlari misolida alohida ta'kidlay olamiz.

## **II BOB. ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTIDA ANAFORA USLUBIY SHAKL SIFATIDA .**

### **2.1 Zamonaviy o‘zbek adabiyotida anaforaning qo‘llanilishi va uning yuzaga keltiruvchi shartlar.**

Anafora – bu matnni tashkil etadigan matnni tuzish jarayonida leksema, so‘z yoki iboralarni takrorlashga asoslangan ritorikaning manbasi hisoblanadi. She‘riyatda va nasrda anafora muallifning sof kommunikativ maqsadga ega bo‘lganida anaforadan foydalanishiga va bu bilan o‘zining kommunikantga yetkazishi mumkin bo‘lgan axborotga alohida e‘tiborini jalb qilgan holda unga muayyan vosita bu yo‘lda xizmat qiladi. Masalan:

Zamonaviy matn lingvistikasida M.Yo‘ldoshev takrorlar yordamida birikish haqida fikr bildirar ekan, birinchi gapda qo‘llangan ayrim affikslar, so‘z, so‘z birikmasi yoki gaplarning keyingi komponentlar tarkibida takroran qo‘llanishi orqali matn shakllantirishi mumkinligini, takror usulidan aytilayotgan fikrni alohida ta’kidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsillroq ifodalash maqsadida foydalanilishini qayd etadi<sup>72</sup>. Matnda anaforalar leksik, takrorlar, olmosh shaklidagi takrorlar, sinonimik birliklar orqali ifodalaniladigan takrorlarga bo‘linishini aytib o‘tadi hamda “... bir xil grammatik formalar bilan boshlanuvchi yoki tugallanuvchi komponentlar yig‘indisidan tashkil topadigan aloqa sifatida” parallel aloqa deya baholaydi<sup>73</sup>. Bundan tashqari takrorlarning alliteratsiya, assonans, anaforik, epiforik shakllarini ajratib turib, uning qo‘llanishiga ko‘ra vertikal hamda gorizontal shakllariga bo‘linishini ta’kidlaydi. Zamonaviy matnlarda anaforaning, asosan, she‘riy matnlarda uchrashini hisobga olib quyidagi anaforik shartlar hisobiga she‘riy san’atlar yuzaga keladi.

#### **1. Bir xil jaranglovchi tovushlarning takrorlanib kelishi:**

Ko‘m-ko‘k

---

<sup>72</sup> M. Yo‘ldoshev Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. –Toshkent. 2007. B. 147. B. 37.

<sup>73</sup> M. Yo‘ldoshev Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. –Toshkent. 2007. B. 147. C. 37.

Ko‘m- ko‘k

Ko‘m-ko‘k...

Ko‘klam quyoshidan

Ko‘kargan qirlar

Po‘lat yag`rinlarni

Ko‘targan yerlar

ko‘m-ko‘k. (Hasan Po‘lat.) Ushbu Hasan Po‘latning she‘riyatida keltirilgan misoldan ko‘rinib turibdiki, lingvistik nuqtayi nazardan bir qarashda “Ko‘m-ko‘k” sifat turkumiga oid leksemasining takrorini ko‘rib o‘tsak-da, boshqa satrlarda keltirilgan til orqa, jarangsiz, portlovchi, sof “k” tovushini, til orqa, yuqori tor, lablangan “o” tovushini va qisman lablangan, portlovchi, sonor, sof tovush hisoblangan “m” tovushining asosiy planga chiqqan holda tovushlar anaforiyasini tashkil qilganligini ko‘rib o‘tish mumkin.

## **2. Bir xil so‘zlarning ohangdosh bo‘lib takrorlanishi:**

**Qaysi bir** ozorin aytay jonima ag‘yorning,

**Qaysi bir** og‘ritganin ko‘mimni dey dildorning. (Bobur) Garchi anaforaning jahon adabiyoti orqali kirib kelganligini lingvopoetik nuqtayi nazardan inkor etmasak-da, yuqoridagi ikkilikdan ko‘rinib turibdiki, mumtoz she‘riyatimizda anafora takror shaklida akslangan, ya‘ni “qaysi bir” leksemalarining uyg‘unligi orqali ifodalangan. Zero, matnda olmosh va son so‘z turkumlari muallif bermoqchi bo‘lgan fikrni yuqori nuqtaga ko‘tara olgan va hissiy-ta‘siriy kuchini ifoda etgan.

3. Sintaktik anafora bu sintaktik jihatdan bir necha gapning bog‘lanib kelishi hisoblanib, asosiy e‘tibor ma‘lum bir bo‘lakning (predikativlik, substantiv, ob‘yektiv, atributiv, relyativatsiya hamda so‘z birikmalarining hamda gaplarni bog‘lovchi sintaktik vositalarning anaforik shakllnuvi) qaytalanishiga bog‘liq ravishda kechadi:

Menikidir kelajak, chaman ,

Menikidir maktab, ijod, fan.

Menikidir sog‘ aql, badan,

Ko'nglim to'lin oy kabi ravshan. (Hasan Po'lat). Ushbu to'rtlikda bir qarashda "menikidir" sintaktik bo'lak bo'lmish kesim hamda "an" ohangdoshligi anaforik shaklda qo'llaganga o'xshab ko'rinsa-da, aslida "an" shunchaki qofiya uchun xizmat qilayotgani hamda, asosan, kesimning konstruktiv inversiyaga uchragan holda joylashishi to'rtlik ma'nosini yanada chuqurlashtirishga xizmat qilganligining guvohi bo'lamiz. O'zbek adabiyotida anaforaning nasriy shakllarini ham kuzatashimiz mumkin, masalan, Abdulla Avloniyning ijodida "Rasuli akram nabii muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Bandalarning yaxshirog'i bandalarga foydali bo'lganidir», – demishlar" satrlari keltirilgan<sup>74</sup>. Nazariya bo'yicha sintaktik qoliplarning anaforiyasi bo'k shaklida yuzaga kelishi tasdiqlanishi ma'lum, ammo ushbu misolda leksemaning ta'sirida ushbu kontekstdagi atributiv va obyektiv birikmalarning anaforik san'atni yuzaga keltirishdagi ishtirokini kuzatish mumkin.

Bundan tashqari rus lingvistikasida pazvali anaforalarning mavjudligidan xabarimiz bor, ammo shu o'rinda ta'kidlash joizki, ushbu lingvopoetik vositalarining o'zbek tilining agglyutinativ tabiatidan kelib chiqqan holda asosan, *morfemalar + ohang* vositasida epiforik shaklda namoyon bo'lishini alohida ta'kidlash joiz. Masalan: *Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdur*<sup>75</sup> kabi misolda [mak+ohang] orqali epiforiya yuzaga kelgan.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida ijod qilgan Abdulla Avloniy hamda Is'hoqxon To'ra Ibratlarning ijodlariga e'tibor beradigan bo'lsak, mualliflar o'z dunyoqarashlarini o'quvchiga yetkazish jarayonida anaforik talqindan keng foydalanganligini ko'rib o'tish mumkin. Masalan, "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridan olingan parchaga e'tibor qaratamiz: "G'azab deb bir kishi ikkinchi kishi ila shiddat bilan muomala qilishmakni aytilur. G'azab insonga maxsus bir quvvayi murofiadurki, tabiatda mavjud o'lan g'azab tuyg'usi ila boshqalar

<sup>74</sup> <https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=6664.0>

<sup>75</sup> <https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=6664.0>

tarafidan keladurgan zarar va halokatdan o‘z nafsini faqat shu soyada saqlar. **G‘azablik** kishilar qancha aql va idrok sohibi bo‘lsa ham, **g‘azab** qoni qo‘zg‘algan zamonida o‘zini to‘xtatolmas, aql va idrokidan ayrilib, bir yomon ishni qilib qo‘yar-da, so‘ng‘idan pushaymon bo‘lur”. Ushbu matnda keltirilgan “g‘azab” leksemasini gaplarning boshida va o‘rtasida keltirish orqali muallif g‘azabning naqadar jirkanch tuyg‘u ekanligini ta’kidlamoqchi bo‘lgan. Va bunga ilova tarzida har bir matnga ilova qilinganidek sher ilova qilgan.

**G‘azablik** bo‘lmag‘il, bo‘lg‘il muloyim,

Bo‘lursan shod-u xurramlikda doim.

**G‘azab** o‘tdur, yoqadur jism-u joning,

**G‘azab** barbod etadur xonumoning.

**G‘azablik** o‘tni bo‘sh suv past qilg‘ay,

**G‘azabni** jinni yoki mast qilg‘ay.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida anaforaning qo‘llanilishi va uning yuzaga keltiruvchi shartlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, biz bilamizki, olimlar tomonidan anaforaning fonetik, morfemik, leksik, strofik kabi turlari sanab o‘tilgan va shu o‘rinda fonetik anafora hamda allitetratsiya, assonans o‘rtasidagi chegarani qo‘yish mumkin emas degan xulosaga kelib qolamiz. Agar bu boradagi mumtoz adabiyotda bir qadar yaxshiroq yechim berilganligining, ya’ni unda aynan bu kabi: unli va undosh tovushlarning uyg‘unligi tavze’ she’riy san’ati sifatida berilganligining guvohi bo‘lishi mumkin. Masalan, Alisher Navoiyning “Kelmadi” radifli g‘azalidan bir bayt tahlilini ko‘rib o‘tamiz:

Lahza-lahza chiqdim-u, chekdim yo‘lida intizor,

Keldi jon og‘zimg‘a-yu ul sho‘x-u badxo‘ kelmadi.

Baytda til oldi, sirg‘aluvchi, sonor, sof tovush “l” tovushining takroridan tavze‘ hamda til oldi, lablanmagan, quyi keng unli “a” tovushining takroridan assonans san’ati kelib chiqmoqda<sup>76</sup>. Olim D.Islomov hozirgi kundagi ilmiy izlanishlar natijasida tilning fonetik imkoniyatlaridan foydalanishning maxsus

---

<sup>76</sup> <https://fayllar.org/mavzu-alisher-navoiyning-hayoti-va-ijodi-reja-v2.html?page=2>

usullaridan biri xususan, badiiy san'atlardan, ayniqsa tavze san'atidan mohirona foydalanishlik matnga qo'shimcha ekspressivlik, fonetik effekt va joziba berishi o'z-o'zidan har qanday kitobxonni jalb qilishi mumkinligini aytib o'tadi<sup>77</sup>.

Qisqacha aytganda, zamonaviy lingvistikada mavjud san'at hisoblangan anaforaning yuzaga kelish shartlarining chegarasi biroz alliteratsiya va asonans bilan kesishishi mumkin va anaforik san'at matnda bizning fikrimizcha quyidagicha shakllanadi:

1. Agar birinchi tovushlarning: unli (assonans), undosh (alliteratsiya) takrori ham anaforiya deb qavul qiladigan bo'lsak, ikkita bir xil fonetik hozilaning ham alliteratsiya, ham anforiya sifatida chalg'ishiga olib kelish mumkin, shuning uchun mazkur hodisani biz lingvistik nuqtayi nazardan asonans va alliteratsiya hodisasi sifatida e'tirof etib, fonetik anaforiyadan chiqarishni taklif etamiz.

2. So'z shaklidagi anaforalar *leksema hamda leksema+Grammatik shakl* hosilasi sifatida shakllanishi mumkin deya ta'kidlaymiz. Masalan:

*Rozi+man, rizo+man, o'la-o'lguncha*

*Xalqi+m deb o'ldim.*

*Xalqi+m nima bo'lsa, men o'sha bo'ldim,*

*Yuragim, bo'g'ilma, o'rtanma buncha!*

*O'zimga xiyonat qildimu aksar,*

*Xalqim+ga xiyonat o'ylagani yo'q.*

*Mening yuragimni teshib o'tdilar*

*Xalqim+ga otilgan talay-talay o'q. (Mirtemir)<sup>78</sup>*

3. Biz adabiyotlarda anaforaga oid ma'lumotlarni tahlil qila turib, satr, gap, matn boshidagi leksema, so'z hamda so'z birikma hatto gaplarning kelishini anafora deya qabul qildik, ammo so'z o'rtasida kelgan birliklarning mumtoz adabiyotda *hashv deya* nom olganining guvohi bo'la turib, ushbu jarayonning zamonaviy lingvistikada e'tibordan chetda qolgan deya hisoblaymiz va gap,

<sup>77</sup> Islomov D. Ўзбек тилига махсус фонетик ва фоностилистик эффект берувчи аллитерация тушунчаси ва санъати ҳақида //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.

<sup>78</sup> <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/30-may-atoqli-shoir-mirtemir-tavallud-topgan-kun.html>



kontekst, matn o‘rtasida kelgan so‘z va so‘z shakllarni ham anaforik hodisa deya e’tirof etamiz:

*Tong otmayin o‘roqni ham soplagum,  
Ketmonni ham duch qilgayman qayroqqa.  
Loy qilaman, loyga somon qoplagum,  
Erta bilan do‘stlar kelur shuvoqqa. (Mirtemir)*

4. She’riy matnlarda anaforalar faqatgina satr boshida kelmasdan satr davomida ham kuzatilishi mumkin:

**Jindak** zehnim, **jindak** sherim, **jindak** g‘azalxonligim  
Onalik mehri to‘ymagan mehri,  
**Jindak** yaxshilik va yomonligim  
Meni odam sanagan elimga baxshida,  
Jafodiyda onaginam!

5. She’riy matnlarda anaforaning strofik (to‘la qatorli) variantda uchratish mumkin:

Alisherga alla aytib uxlatgan  
**Sen — ona.**  
Og‘ushida Bobur kamolga etgan  
**Sen — ona.**  
Torobiyni og‘ir jangga jo‘natgan  
**Sen — ona.**  
Olamni nurida munavvar etgan  
**Sen — ona.**  
Yig‘lasa, dunyoni raso titratgan  
**Sen — ona.**  
Kulgisi saodat parvarish etgan  
**Sen — ona.**  
Dohiyalar beshigin bedor tebratgan  
**Sen — ona.**  
Mehri bahorida elni yashnatgan  
**Sen — ona.**

## **2.2. 1920-1950 yillar oraliq‘ida shakllangan o‘zbek she’riyatida anafora – emotsional-ekspressiv bo‘yoq beruvchi vosita sifatida**

XX asr faqat o'zbek xalqi hayotida emas, balki butun dunyo hayotida alg'ov-dalg'ovlarga boyligi bilan ajralib turadigan davr bo'ldi. Bu asrga kelib, hayot jarayonlari tezligi haddan ziyod ortdi. Ijtimoiy hodisalarning almashinish surati aqlga sig'mas darajada tezlashdi. Turkiston xalqlarining necha asrlar mobaynida davom etib kelayotgan bir maromdagi mudroq hayoti shu asr boshida ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi. Fikrdagi yangilanish, texnika yutuqlarining kirib kelishi, axborot almashishning tezlashgani turkistonliklarning hayot tarzlarini o'zgartirib yubordi. Shu vaqtga qadar milliy adabiyotimiz milliy hayotimiz bilan yelkama-yelka bormas edi. Garchi, adabiyotimiz hayotdan tamomila ajralib qolmagan bo'lsa-da, ijtimoiy turmushning muammolari uni to'la chulg'ab olmasdi. XX asrga kelib, adabiyot hayotga yaqinlashdi. Bu bilan kifoyalanib qolmay, hayotni o'zgartirishga urina boshladi.

Rossiya bosqini, uning zo'ravonlikka asoslangan mustamlakachilik siyosati Turkiston xalqlarining usiz ham og'ir bo'lgan hayotini yanada qiyinlashtirdi. Ijtimoiy adolatsizlik, huquqiy tengsizlik tufayli kechayu-kunduz tinim bilmay ishlagan yurt egalari tobora qashshoqlashib, ularni talash va aldash bilan shug'ullangan bosqinchilar boyib bormoqda edi. Qashshoqlik tufayli esa turkistonliklarda g'urursizlik, johillik, tobelik, loqaydlik singari illatlar shakllanmoqda ediki, bu hol o'z millatining o'tmishidan xabardor va kelajagidan umidi bor ijodkor ziyolilarni bezovta qilmasligi mumkin emasdi. XIX asrning adog'i XX asrning boshlarida birgina Turkistonda emas, balki dunyodagi juda ko'p mustamlakalarda milliy uyg'onish harakati boshlangan edi.

Ijtimoiy adolatsizlikni yo'qotmoqchi, nohaq tartiblarni o'zgartirmoqchi bo'lgan fikr kishilari millatning nochor holati va og'ir turmush tarzini o'zgartirish uchun dastlab xalqqa bilim berish kerak, deb hisobladilar. Millatni g'aflatdan uyg'otmay, xalqning ruhida taraqqiyotga mayl paydo qilmay turib, hech narsaga erishib bo'lmasligi tushunib yetildi. Millatga ma'rifat berish sifat jihatidan ham, sur'at jihatidan ham tamomila boshqacha tashkil etilishi lozimligi ayon bo'ldi. Faqat ruhga ta'sir etadigan, axloqni takomillashtiradigan bilimlar bilan kifoyalanib

bo‘lmasligi, fan-texnika asoslarini puxta o‘rganish zarurligi anglab yetildi. Buning uchun yangi o‘qitish usullari joriy etilishi kerak edi. Shu tariqa, Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidan e‘tiboran shakllana boshlagan ma‘rifatchilik qarashlari XX asr boshlariga kelib jadidchilik harakatining yuzaga kelishiga asos bo‘ldi. ”Jadid” so‘zi arabcha “yangi» ma‘nosini berib, taraqqiyotga intilgan kishini anglatadi. Ma‘rifatchilar adabiyotni jaholatga qarshi kurash vositasiga aylantirganlaridek, jadidlar ham badiiy adabiyotni xalqni g‘aflat va mustamlaka zulmidan qutqarish quroliga aylantirdilar<sup>79</sup>.

XX asrning 20-yillar adabiy jarayonida faoliyat ko‘rsatgan shaxslar qanchalik turli mavzu va janrlarda ijod qilmasin, baribir, ularning ruhiy olami, tabiiy iste‘dodining qaysidir qirrasini yarq etib ko‘zga aniqroq ko‘rinadi, ular ijodi nufuzli jihatlari bilan umumiy tarzda tavsiflanadi. Jumladan, Fitrat deganda, birinchi navbatda, shoir, dramaturg, yozuvchi, publitsist siymosi ko‘z oldimizda gavdalanadi. Biroq Fitrat adabiy jarayonda yozuvchi, shoir, dramaturg bo‘lish bilan birga tilshunoslik ilmining bilimdoni sifatida ham mashhur bo‘lgan. Birinchi o‘zbek professori unvoniga sazovor bo‘lgan Fitrat o‘zbek grammatikasini o‘rganishni boshlab bergan va ushbu sohaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan tilshunos hamdir<sup>80</sup>. Ayni Abdurauf Fitrat o‘zi maharrirlik qilgan “Hurriyat” gazetasi sahifalarida e‘lon etilgan uch sochmasi va bir sherini “Yurt qayg‘usi” deb ataydi va hamda adabiy asar quyidagicha boshlanadi: Onam! Seni qutqarmoq uchun jonni kerakdir? Nomusmi, vijdon bila imonmi Kerakdir?. “Yurt qayg‘usi” sherida anaforaning sara namunalarini uchratish mumkindir:

***Boq, boq, mana turk tengizi Toshqun qila qoldi,***

***Turon yovini quvg‘ali to‘fonmi kerakdir?***

***Turon, yigiting, barchaga boq, qalqdi oyoqg‘a,***

***Yurtda qorovul qo‘yg‘ali arslonmi kerakdir?***

---

<sup>79</sup> <https://fayllar.org/jadidchilik-va-jadid-adabiyoti-yangi-ozbek-adabiyotining-oziga.html>

<sup>80</sup> Ne‘matova D.S. “Sarf” asarida so‘zning morfologik strukturasi talqini / research focus | volume 1 | issue 3 | 2022 issn: 2181-3833 researchbip (14) |

Yurtni mustamlakachilik azobidan qutqarmoq uchun Temur va Chingiz qoni tomirida oqib turgan yurt o'g'lonlariga murojaat qilgan, yurtni qutqarmoq uchun qon kerak bo'lsa-da, o'z qonini to'kib bo'lsa-da, ko'ksini qalqon qilib kurashadigan, Turon yovini quvish uchun to'fon bo'lib, arslon kabi jangga chog'lanishni tavsiya qilayotgan shoir "boq" leksemasini ketma-ket va satrlarosh hamda "Turon" jumlasini qayta takrorlash orqali emotsional-ekspressiv xususiyatlarini kuchaytiradi.

Yana:

*Men sening uchun tirildim,*

*Sening uchun yasharman,*

*Sening uchun o'lurman*

*Ey turklikning muqaddas o'chog'i! (Fitrat)*

XX asrning 20-yillarida ijod qilgan Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida tavnologiya orqali anaforaning ajoyib namunalarini ko'rib o'tish mumkin. Asarni o'qish jarayonida muallif so'zlarni takrorlash orqali voqelikka o'quvchini beixtiyor oshno qiladi. Masalan, asarda Razzoq so'fining xarakteri bilan bog'liq jihatlarini yuzaga chiqarish uchun "kulmoq" leksemasi takroridan foydalanadi: **Kulish bilan kulmasdan jimgina sukut saqlab turish orasida ham anchagina masofa bor. Shu uchun Razzoq so'fining kulishlarini kulish, deb bo'lmaydi... Kulmasdan chidab bo'lmaydigan maqomlarda u ham kuladi, lekin u kulish – kasal odamning kulishiday og'ir, bir xil sovuq hazillarday malol keltiruvchi, yolg'on xushomadlarday ko'ngilga uruvchi bo'lardi. Bir kun Zebining juda jiddiy bir chehra bilan: – Otam kulmas ekan-da! – deganini eshitib, Qurvonbibi koyib bergan edi...** Ushbu misralardan ko'rinib turibdiki, asar davomida anaforaning kontrast bilan qorishiq qo'llash orqali stilistik fuguraviylikka darajasiga erishilgan. Yana: *Enam gapga usta. Eshondan tushganini ko'ring. «Eshon», desangiz, otam o'lganini ham bilmaydi... Xudo muni*

*eshonlar uchun yaratgan...* Bu misolda esa soʻfining eʻtiqodi oldida uni oʻrab turgan har bir detalning qiymati birgina “eshon” soʻzini takror ishlatish vositasida beradi. Asar davomida bunday anaforik shakllarni koʻplab uchratish mumkin, keyingi olingan namunalarda shirin-shirin juft soʻzi, oy, oʻy kabi misollarni anaforiyaning yorqin namunalari sifatida qabul qilish mumkin: – *Yaxshi emas, shunday zim-ziyo qorongʻida... Gaplashib ketaylik... Shirin-shirin* gaplardan... *Aravakash uning soʻzini ilib oldi: – Shirin-shirin gap oʻrniga shirin-shirin ashuladan boʻlsin, opa. Taʻrifingizni eshitib, jigarlarimiz laxta-laxta qon boʻlib ketgan... Salti tegishdi: – Voy, tovva-e! Laxta-laxta qon boʻlganmi? Jabr boʻlgan ekan... Miyasida, umrida birinchi martaba oʻlaroq, ajib va shirin xayollar aylanardi. Koʻkdagi oyga qarab, yerdagi oyni oʻylar va boyagiday shirin-shirin kulimsirardi... Ichkaridagilar ham dong qotdilar. Faqat,.. U ham koʻkdagi oyga qarab, yerdagi «toy»ni oʻylar va yuzlari anorday qizarardi...*

Asar qahramonlaridan biri Oʻlmasjonning Zebiga boʻlgan muhabbatini yozuvchi yashirish maqsadida oshiqning oʻzi ham oʻziga taʻkidlashi joiz boʻlgan “ovoz” leksemasi orqali beradi: ...– *Yoʻgʻ-e, ovozi soz deyman-da, ovozi! – dedi, lekin tili gapirgani bilan yuragi «yolgʻon, yolgʻon» deb turganini oʻzi ham bilar, Xolmatning ishonmasligiga aqli yetardi. Shuning uchun masalani chuqurlashtirmasdan, soʻzni boshqa tomonga burishni ep koʻrdi: – Ovoziga nima deysiz, chinakam qiyomat-a? – dedi Xolmatga – Ha, ovozi joyida. Saltanatxondi oʻrtogʻimi? – Eng yaqin oʻrtogʻi ...Uning maʼlum bir kasbi, hunari yoʻq. Na savdo-sotiq qiladi, na dehqonchilikka urinadi, na kosib-hunarmandlik peshasini tutadi.*

<p>“Kecha va Kunduz” asarida qoʻllangan anaforalarning statistikasi</p>	<p>Ot</p>	<p>Sifat</p>	<p>Feʼl</p>	<p>Yordam chi soʻz turkumi</p>
---	-----------	--------------	-------------	--

Kul			+	
Shirin- shirin		+		
Eshon	+			
Oy	+			
O'y	+			
Ovoz	+			
Na..., na				+

Cho‘lponning “Kecha va kunduz ” asarini bir bobida keltirilgan leksik va grammatik anaforalarning statistikasi ustida ishlaganimizda, asosan, ot so‘z turkumiga oid leksemalarning anaforik qo‘llanishini boshqa turkumlarga nisbatan ko‘proq ekanligiga guvoh bo‘ldik.

**Dissertatsiyaning II bobi yuzasidan quyidagi xulosalarni aytib o‘tish mumkin:**

1. Zamonaviy she‘riy matnlarda anaforaning, asosan, she‘riy bir xil jaranglovchi tovushlarning takrori, ya‘ni fonetik anaforalarning, Bir xil leksemalarning ohangdosh bo‘lib takrori, ya‘ni leksik anaphora, *leksema hamda leksema+Grammatik shakl* hosilasi sifatida shakllanishi kuzatiladi.

2. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida anaforaning qo‘llanilishi va uning yuzaga keltiruvchi shartlariga ko‘ra fonetik anafora tarkibida allitetrativ anaforalar, assonans nisbatan ko‘pchilikni tashkil qiladi.

3. Zamonaviy o‘zbek she‘riy matnlarda anaforaning satr o‘rtalarida va to‘la satr holatida kuzatish mumkinligi ta‘sirchanlik va tasviriylik faqatgina satr boshida leksemalarning ta‘sir doirasini kuchaytiradi degan fikrlarni inkor etadi.

4. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarini bir bobiga keltirilgan leksik va grammatik anaforalarning statistikasi ustida ishlaganimizda, asosan, ot so‘z

turkumiga oid leksemalarning anaforik qoʻllanishini boshqa turkumlarga nisbatan koʻproq ekanligiga guvoh boʻldik.

### **III. BOB. KONTRAST –TURLI FANLAR DOIRASIDA UMUMIY TUSHUNCHA IFODALOVCHI KATEGORIYA SIFATIDA.**

#### **3.1 Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti shoirlari ijodida anaforalar qo‘llanish darajasi**

Badiiy adabiyot o‘z yo‘nalishlari - nazm, nasr va dramaturgiyaga bo‘linadi va mohiyatan mustaqillik davri adabiyoti ushbu turga oid bo‘lgan adabiyot namunalari bilan boyidi. Bu holat o‘zbek adabiyoti tarixida yangi davr boshlanganidan darak berardi. Mustaqillik yillarida o‘zbek she‘riyati istiqloq yillarida o‘ziga xos yangi adabiy estetik hodisa sifatida namoyon bo‘la boshladi. Badiiy ijod maydonida shoirlar uchun erkin ijodiy muhit yuzaga keladi va adiblar o‘z ma‘naviy dunyosini, olam va odamga doir qarashlari, individual his-tuyg‘ularini bor holicha taqdim qila boshlashdi.

Mafkuraviylashgan eski adabiy siyosatdan boshqacha, yani inson erkin qadrlash, vatanning chin saodati, buyuk kelajagi uchun qayg‘urish, milliy o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarni e‘zozlash kabi qator mavzular bu davr she‘riyatida yetakchilik qildi. Vatan- ijod ahlining yuragiga eng yaqin, juda muhim va doimiy mavzu. O‘zbek adabiyoti tarixida yurtning go‘zal tabiyatini, osmon o‘par tog‘larini, dala-dashtlarini, bepoyon qirlarini, bebaho ma‘danlarini madh etgan she‘rlar ko‘p yoziladi. Tabiiyki, bu muazzam va muqaddas Vatan borligi faqat moddiy ne‘matlardangina iborat emas. Abdulla Oripov bir she‘rida: “Yurtim, seni faqat boyliklaring chun Sevgan farzand bo‘lsa, kechirma aslo!”<sup>81</sup> deb xitob qildi. Zotan bu ko‘hna zaminda O‘zbekistonning ma‘naviy muhitini, ob-havosini, shon-sharafini, shuhratini dunyoga tanitib turgan, eng muhimi, Vatan timsoliga aylangan ulug‘ siymolari bor. Bu ulug‘larning nomi yurtning uzoq-yaqin tarixi sahifalarini bezaydi. Ular orasida jahon ilm-faniga, ma‘naviyat va adabiyot xazinasiga ulkan hissa qo‘shganlari, Erkin Vohidov ta‘biri bilan aytganda, “sirli olam toqiga ilk narvon” qo‘ygani ham, “she‘riyat mulkida shoh-u sulton” bo‘lgani ham, dushmanlarga qarshi “ko‘ksi qalqon” Vatanparvarlari ham mavjuddir. O‘z vaqtida

---

<sup>81</sup> <https://uzbaza.uz/abdulla-oripov-sheirlari/>



Vatan ozodligi, hurligi va erki ramziy ravishda shoirlar ijodining asos-negiziga joylandi. Nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyoti tarixida Vatan haqida she'r yozmagan shoir kamdan-kam topiladi. Albatta, ularning badiiy saviyasi, ta'sir quvvati, yuraklardan joy olishi turlicha. Ayrim holatlarda shoir Vatan so'zini she'rida qo'llamasdan ham el-yurtiga mehrini izhor qilishi mumkin. She'riyatda Vatan haqidagi so'z shoir tabiatiga, ruhiyatiga, dunyoni anglashi va anglatishiga daxldor so'zdir. Ko'pincha shoirning o'zligi, ichki "men"-i bilan tashqi ijtimoiy muhit bitta lirik qahramonda jamlanadi. Vatan o'sha obrazda namoyon bo'ladi va aksincha, shoirning o'z dunyosi yoki yaratgan qahramoni Vatan timsoliga aylanadi...! To'g'risi, har qanday adabiy hodisalar, she'riy asarlar o'z-o'zidan go'zallik kashf etmaydi. She'riyatning ta'sir quvvati uchun iste'dod darajasi va shu iste'dodni namoyon etish uchun sog'lom adabiy muhit muhim sanaladi. Mustaqillik davri she'riyati mazmunan yangilanib borayotgan she'riyat sanaladi. Shu bilan bir qatorida, turli she'riy shakllar bo'yicha tajribalar ham qilinadi. She'rda ta'sir quvvati, har bir shoirning o'z o'quvchisiga o'z aytar so'zi va o'ziga xos uslubi bo'lishi lozim. Bu dunyoga bir qoshiq, berib ketgin, shoirim - Marhumlar uyg'onsinlar, Uxlolmasin tiriklar. (Usmon Azim) Bu o'tkir va o'ziga xos poetik tabiatli to'rt misrada shoir o'z zamondoshlarining badiiy jihatdan yuksak, ta'sirli, umr-boqiy sherlar yozishga chaqirayotgandek taassurot qoldiradi. Shunday she'riy namunalarni o'z tarkibida jamlagan o'nlab shoirlarning to'plamlari aynan istiqlol yillarida dunyo yuzini ko'rdi.

Mustaqillik yillarida qator katta va yosh avlod ijodkorlarning o'nlab she'riy kitoblari nashr etildi. Bu davr o'zbek nasrida insoniy qadriyatlarni e'zozlash, milliy urf-odatlarini qadrlash, mashhur tarixiy shaxslar hayotini badiiy talqin qilish, zamon qahramoniga munosib obrazlarni tasvirlash kabi tamoillar yetakchilik qiladi. Mustaqillik davri nasrida inson va tabiat masalasi adiblar tomonidan ko'p qalamga olindi. Zero, tabiat og'ushidagi minglab, millionlab xilqatlarning o'z fazilati, fitrati, xususiyati bor<sup>82</sup>.

---

<sup>82</sup> Kulimbetova M.R. Mustaqillik davri adabiyoti "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.567 (SJIF) December 2022 / Volume 3 Issue 12

Bu davrda yaratilgan she'riy asarlarda hissiy-ta'siriy ifodani yuqori nuqtaga chiqarish uchun takrorlardan shoirlar takrorlardan unumli foydalanishgan. Masalan, Jamol Kamolning ijodida bu san'at quyidagicha namoyon bo'ladi:

**Ba'zida** kun yorug', **ba'zan** oy qaro,

Totdik tahqirlaring, ardoqlaringni,

**Ne-ne** talotumlar, quyunlar ko'rdik,

**Ne-ne** tomoshalar, o'yinlar ko'rdik.. (Jamol Kamol "Asr bilan vidolashuv")

Shoir ushbu misralarda atash ma'nosiga ega bo'lmagan birliklardan: olmosh hamda bog'lovchilar tautologiyasi orqali she'riyatdagi kontrastni yanada chuqurlashtirib ko'rsatishga harakat qilgan. Yana:

Yigirmanchi asr... Munavvar etdi

To'garak jahonni aqliy mo'jiza.

**Inson** ilmi olis yulduzga yetdi,

**Inson** qadam qo'ydi to'lin oy uza

Dunyoni kashf etib, **dunyoni** bildik,

Tadqiq eta oldik yomg'irni, qorni,

Yigirmanchi asr... Armonlar bilan

**Necha** bor tug'ildik, **necha** bor o'ldik.

...**Yana** qayta boshdan umidga to'ldik.

**Yana** tong nuriga qorishdi dunyo,

Ko'zimiz o'ngida yorishdi dunyo... satrlarida *inson, dunyo, yana va necha* so'zlari vositasida el-yurtiga mehrini, shoir tabiatiga, ruhiyatiga, dunyoni anglashi va anglatishiga so'zlar sifatida qabul qilmoq darkor. Mustaqillik adabiyotida anaforaning faqatgina satr boshida emas, misralarning boshida va o'rtasida qo'lanishini ham kuzatdik.

**Yerni** uyqu devi aldab, muzlatar,

Jonini ilitgay Qavs yaxobi.

Qarri, soqov **yerni** qayta so'zlatar

Dehqon yuragining mayin oftobi. (*Oydin Hojiyeva*)

Anafora – bu matnda xotirada saqlanib qoluvchi o‘ziga xos belgi bo‘lib, esda qoluvchi ramziylikka ega bo‘ladi. Ayni shu jihati vositasida anafora samarali bo‘ladi va anafora samaradorligining yuqori darajadagi namunasi bo‘lib xizmat qiladi. Anaforani tarixan ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak, tarix, adabiyot va sahna bilan bog‘liq qo‘llanilishini ko‘rib chiqamiz<sup>83</sup>. Anafora haddan ziyod ajralib turuvchi badiiy usul toifasiga kirmaydi. Shunday bo‘lsa-da, kundalik suhbat jarayonida hamda yozma adabiyotlarda ko‘proq kuzatiladi. Suhbat jarayonida anaforaning qo‘llanish maqsadi suhbatdoshning kerakli axborotni berish jarayonida suhbat mavzusiga tayyorgarlik darajasining pastligi bilan izohlash mumkin, nutqiy kompetentlashmagan holatda anaforadan parazit so‘z maqomida foydalanish mumkinligini ham unutmaslik darkor, yozma adabiyotlarda esa hissiy-ta’siriy bo‘yoq berish maqdadida so‘zlarning takroriga yo‘l qo‘yiladi. Ammo bir qarashda boshqa san’at turlariga qaraganda tahlilga tortishning eng oson usullaridan biri sifatida qabul qilamiz:

**Isming aytib** chiqar kurtaklar,

**Isming aytib** chiqadi quyosh.

**Isming aytar** jangchi yuraklar

Kurash chog‘i tugasa bardosh,

Ey, qalbimning onasi Vatan! (Xurshid Davron “Men ko‘ksingga boshimni qo‘ydim”).

O, hayotning oliy butunligi!

Insonga ufqlarni kengroq och,

Jamiki dartlarga malham o‘zingsan,

**Azobli** o‘ylarga yog‘du soch,

**Azobli** o‘ylarga yog‘du soch...

O‘zbek adabiyotida anaforadan foydalanishda ma’lum bir maqsadlar qo‘yiladi. Bular:

1. Ritm hosil qilish uchun foydalaniladi.

---

<sup>83</sup> <https://www.studiobinder.com/blog/what-is-anaphora-definition/>

2. Bir necha fikr, tuyg‘u va g‘oyalarni ta’kidlash uchun foydalaniladi.

3. Bir necha fikr, tuyg‘u va g‘oyalarni qiyosiy solishtirish uchun foydalaniladi.

4. Ajratilgan satr, fraza, kontekstni yanada esda qolarli va xotirada muhrlash uchun foydalaniladi.

Muallif ma’lum bir axborotni oddiy axborotdan farqli o‘laroq yetkazishni maqsad qilganida so‘zlar takroridan foydalanishni ma’qul ko‘radi va ayni shu holat orqali kitobxon ongida mavjud jarayon bir so‘z vositasida joylashadi. Shuning bilan birgalikda muallif tomonidan o‘quvchiga bir necha g‘oyalar ta’kid yoki qiyos uchun taklif qilinadi va auditoriya ushbu fikrlarni solishtirgan holda va takroriga muvofiq xotiraga joylashtiradi. Nihoyat anafora matnga ritmililik baxsh etdiki. Bu frazar tempini yuqori nuqtaga ko‘targan holda axborot qabul qilivchini ruhlantiradi, hissiy-ta’siriy ifoda, emotsional ekspressivlik baxsh etadi yoki, aksincha, negative hissiyotlarni kuchaytirishga xizmat qiladi<sup>84</sup>. Anaforani qo‘lash tufayli yozma manba hosilalari xotirada mustahkam qoluvchi axborotlar sirasiga kiradi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida nasriy asarlarlarda anafora o‘z ko‘lami va g‘oyaviy-badiiy jihatdan tasvir imkoniyatlarining kengligi bilan ajralib turadi. Nasriy asar uchun har qanday hodisani – u katta yoki kichik bo‘lishidan qat’iy nazar – badiiy tasvir vositalari, obrazli tafakkur, insonning barcha ruhiy kechinmalari e’tiboriga ko‘ra aks ettirish muhim sanaladi.

Epik ko‘lamdor roman yoki qissalarni o‘qib, ma’lum bir davrning ijtimoiy-tarixiy hayoti, insonlarning turmush tarzi, o‘y-kechinmalari, ishq-muhabbatdek bebaho his-tuyg‘ularini tasavvur qilish mumkin. Ayni damda badiiy asar o‘z muallifining dunyoqarashi, iste’dodi, shaxsiyatining kimligidan ham darak beradi. Abdulla Qodiriy: «Yozuvchini, garchi shaxsan tanilmasa ham, asarlarini o‘qib, qanday tabiatli shaxs ekanini g‘oyibona bilish, tasavvur qilish mumkin. Chunki u asarlarida, asosan, o‘z tabiatini, ruhini tasvirlaydi», deb juda o‘rinli fikrni yozgan edi. Mustaqillik davri o‘zbek nasri tarkibidagi ayrim namunalar bilan

---

<sup>84</sup> <https://www.studiobinder.com/blog/what-is-anaphora-definition/>

muhtaram o‘quvchilar quyi sinflarning «Adabiyot» darsliklari orqali tanishgan edi. Ammo uni yaxlit tasavvur qilish uchun bugungacha davom etayotgan adabiy jarayondan ham boxabar bo‘lishlari lozim. Istiqloq yillarida tarixiy va zamonaviy mavzuda romanlar, dunyo adabiyoti tajribalaridan o‘rgangan holda yaxshi qissa va hikoyalar yozildi. Hech shubhasiz, bu davrda yangicha yo‘nalishlar, adabiyot maydoniga qadam qo‘ygan yosh adiblarning yangi nomlari paydo bo‘ldi; inson tabiatidagi ziddiyatlarni noan’anaviy usulda tasvirlashga e’tibor kuchaydi; insonning sirli dunyosini badiiy tadqiq qilish jihatidan o‘zbek nasri yuksaldi. Eng yaxshi asarlarda jahon adabiyotining tasvir tamoyillari bilan o‘zbekona milliy tafakkur uyg‘unlashdi<sup>85</sup>. Epik asarlarda keltirilgan anaforalarni ko‘zdan kechirganimizda anaforaning sinonimik shaklda qo‘llanishiga guvoh bo‘ldik:

Zamona **arg‘umog‘i** poygada yutib chiqishga otlangan uchqur **samanday** shiddat bilan olg‘a chopadi. Faqat uning **samandan** farqi bor: samanni chavandoz boshqaradi, bu **arg‘umoqning** esa chavandozi, egar-yugani yo‘q, yaydoq, bir o‘zi, boshi og‘gan tomonga chopadi, oyog‘i tashlangan yerga tushadi. U birovni mindirish u yoqda tursin, yoniga ham yo‘latmaydi, har qanday **saman** horib-toladi, **arg‘umoq** esa ne-ne asrlar, yillar o‘tibdirki, charchash nimaligini bilmaydi, to‘xtamasdan yelgani yelgan... Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” asarida keltirilgan ushbu misralarda arg‘umoq, saman kabi sinonimik leksemalarini qo‘llash vositasida vaqtning olg‘irligi, hech narsada shafqat bilmasligi qayd etilgan. Yoki: **Davlatli xalq eding, davlating qani? Xoqonli xalq eding, xoqoning qani?** Tepangda turk osmoni, pastda turk yeri bo‘lsa...»/ **Davlatli** xalq ekanmiz! **Xoqonli xalq** ekanmiz! Kichikligimdan otamning o‘sha alamli so‘zlari ko‘nglimga o‘rnashdi, o‘sha **davlatni** barpo etishni niyat qildim... Ushbu misralarda davlat, xalq, xoqon kabi leksemalar hamda eding, qani kabi leksik ma‘noga ega bo‘lmagan birliklarning bir emas, bir necha so‘zlarning ketma-ket ishlatilishi anaforaning sara namunasi sifatida tahlilga tortish mumkin: – E, qoyil-e! **Donishmand** chol ekan... – Ha, **donishmandlar donishmandi** ekan o‘sha

---

<sup>85</sup> Kulimbetova M.R. Mustaqillik davri adabiyoti "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.567 (SJIF) December 2022 / Volume 3 Issue 12

oqsoqol bobo! Toj-taxtimning yagona vorisi, valiahd shahzoda Muhammad Sulton ham ekan niholimdur, – dedi Amir Temur ko‘ngli iyib. Ushbu anaforik tahlilda cholning aql darajasini ko‘tarib ko‘rsatish maqsadida **“donishmand”** leksemasidan foydalanilgan. Bundan tashqari nasrda va dramada anaforaning bir qancha sara namunalarini ko‘rib o‘tish mumkinki, she‘riy takrorning hissiy-ta‘siriy ifodasini unda ko‘rib o‘tish mumkin, masalan, Erkin A‘zamning “Tanho qayiq” asarida namuna: **Qum, qum... yer-u osmon qum-a, tavba!** (Tikila-tikila, birdan yuzi yorishadi.) **Yo‘-o‘q, suv bu, suv! Qara, oftobda shishaday yalt-yult qilyapti jonivor!.. Orol qaytib kelibdi! Orolim! Bir kechada suvga to‘libdi, yashasin, dod! Ana – mavjlari! Ana – to‘lqinlar! Vah, qayiqlar ham suzib yuribdi!.. (U huvillab qolgan ovul tomlaridagi uzoq-yaqin qayiqnlarni o‘zicha sanay ketadi.) Bir, ikki, uch... yetti, sakkiz, to‘qqiz... Iye, shoshma, suv nega buncha sarg‘ish? Ana, mavjlari ham, to‘lqinlar ham sap-sariq!.. Ha-a, bo‘ldi, bo‘ldi – loyqalangan. Loyqalanib-loyqalanib to‘ladi-da suv! Ammo... xuddiki qum deysan, qumning o‘zginasi-ya!.. Ko‘zingni yiribroq qarasang-chi, kallavaram, qum bo‘lmay nima u axir?! Orol suvga to‘lganmish! Suvlari mavjlanib yotganmish! Sen yasagan qayiqlar suzib yurganmish!.. Har erta shu ahvol-a! Tushingni ana – qumga, qumliklarga ayt! He, esini yegan telba chol!// Lekin – har birining tomida bittadan qayiq. Sen yasagan qayiqlar, shogirdlaring yasagan qayiq. Suvga tashna, suvga ilhaq. Suzadigan suv bo‘lmasa, mavj-u to‘lqinlar bo‘lmasa, yasagan qayig‘ing kimga kerak?!// Orol bo‘ylarida Oyqumushning belidan quchganlaring yodingdan chiqibdi-da, noshukur?! Ha-a, esingni tanib, ko‘rgan-bilganing – Orol bo‘ldi. Ko‘m-ko‘k mavjlararo otang qayiqda eshkak eshib borayotir, sen uning qo‘ynida... Shundan oting «Orolbola» bo‘lib ketdi. Keyin-keyin – Orolboy, endilikda – Orol bobo. O‘zingning oting-chi, o‘zingning chin oting nima edi? E, kimning esida bor deysiz! «Orol» bo‘lsa kerak-da... Ishqilib, yoshingni yashading, oshingni oshading endi, birodar... Uff! Nechaga kirdim o‘zi? Xuddi ming yildan buyon borman-u yana ming yil o‘lmaydigandekman-a! Yo‘-o‘q, Orolboy, hozirlikni ko‘ravering, bugun bo‘lmasa, ertaga... Yoshligingiz ham, umringiz ham Orol bilan ketgan, qaytmaydi endi u! Uff!.. Yuqorida keltirilgan misollarda voqelikni o‘quvchiga**

aniqroq yetkazish maqsadida “Orol, qum, suv, qayiq” kabi leksemalarni anaforik qo‘llangan va shu orqali kitobxonning ko‘z oldiga Orol dengizi va u bilan bog‘liq bo‘lgan fojia yaqqol ko‘rsatilgan.

### **3.2. Zamonaviy o‘zbek she‘riyatida leksemalar kontrasti-lingvistik kategoriya sifatida**

Kontrast – bu matnda turli xil qarama-qarshi birliklar, leksemalar va tushunchaviy munosabatlarni qamrab oluvchi tamoyillar yig‘indisidir. U she‘riyatda bir qator zidlik munosabatiga ega bo‘lgan birliklarning hamohang munasabatlarini akslantiradi. Badiiy matnlardan hisoblangan she‘riyatda kontrast yuzaga keltiruvchi, uning badiiyatini ko‘rsatib beruvchi birlik sifatida, asosan, antiteza va oksimoron ko‘zga tashlanadi. Bu ikki san‘at turlari bir qarashda bir-birlariga o‘xshasa-da, ichki mohiyatan ko‘rib o‘tsak, ularning naqadar farqlanishini guvohi bo‘lishimiz [*frans. tilidan olingan bo‘lib*] bir necha izohlari keltirilgan:

1. Keskin farq.
2. Obyekt yorqinligi bilan fon o‘rtasidagi ayirma va ular yig‘ilmasiga nisbat.
3. (Fotografiyada) pozitiv va negative fotografik tasvirning eng och va eng to‘q joylari ravshanlik xossalari nisbati. Oq-qora tasvirda kontrast qorayishning eng katta va eng kichik optik zichliklari ayirmasi bilan aniqlanadi:  $D = D_{\max} - D_{\min}$ . Fotografik materialning kontrastlik koeffisienti qancha katta va obyektning kontrastligi qancha yuqori bo‘lsa, kontrast shuncha kuchli bo‘ladi<sup>86</sup>. OTILda: kontrast – [*frans. kontraste*] 1. Ko‘zga tashlanadigan keskin farq qarama-qarshilik. 2. Rassomlik va fotografiyada: predmet tasvirining bir-biridan keskin farq qiladigan qorong‘i (to‘q) va yorug‘ (och) joylari. M: *Kontrast surat*<sup>87</sup>.

Ushbu doirada olib borilgan tadqiqotlarni raqamli axborot vositasida ko‘rib o‘tsak, asosan, rus tilshunoslar holda amalga oshganligining guvohi bo‘lindi.

<sup>86</sup> Ensiklopedik lug‘at II tomlik. – Toshkent. I tom –B.lar 557, B. 410.

<sup>87</sup> Madvaliyev tahriri ostida O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V tomlik. – Toshkent. II tom –B.lar 671, B. 403

Vvedenskaya L.A.<sup>88</sup>, Ilina Y.Y.<sup>89</sup>, Kozhevnikova N.P.<sup>90</sup>, Matvievskaya L.A.<sup>91</sup>, Pavlovich N.V.<sup>92</sup>, Solovyeva V.S.<sup>93</sup> va hokazo olimlar tadqiqot olib borishgan. Uslubiy vositalarni aniqlashda taklif etilayotgan metodlar, asosan, kontrastni tahlil qilishga mo'ljallangan bo'lib, tavsiyaviy xarakterga ega va ularni aniqlovchi badiiy san'atlarning asosiylaridan biri antitezadir.

**Antitezis**<sup>94</sup> (yun. ἀντι – qarshi, θέσις – joylashuv) – matn talabidan kelib chiqib og'zaki yoki yozma shaklda fonematik birlik, leksema, so'z, frazeologizm, so'z birikmasi, gap, sintagmatik formada o'zidan oldingiz kelgan birlikka nisbatan zid munosabatlarni ta'kidlash vositasida emotsional-ekspressiv bo'yoq beradi va bu uslubning mantiqiy frazalarda va terminlarda ham qo'llanishini ko'rib o'tish mumkin bo'ladi deb Vvedenskaya L.A. "Stilisticheskie figury`, osnovanny`e na antonimax" maqolasida ta'kidlagan va ushbu fikrga biz qo'shilmiz, zero, matematika sohasida qo'shuv-ayiruv kabi keltirilgan misollarda antomik munosabatni anglash sababli terminlar orasida antonimik munosabatlar anglab olsa bo'ladi.<sup>95</sup> Ya'ni tushunchalar bayonida parallel ifodalar g'oyalar qarama-qarshiligi bo'rtirish imkoniyatini taqdim etadi.

Olima O. P. Семенова antitezani qarama-qarshi birliklardan iborat nutqiy figura deb ataydi. Buning uchun, avvalo antonimik munosabatga kirishuvchi til birliklarini usual (til birligi) yoki kontekstual ekanligini aniqlash kerak bo'lishini

---

<sup>88</sup> Vvedenskaya L.A. (1966), *Stilisticheskie figury`, osnovanny`e na antonimax* (Kratkie ocherki po russkomu yazy`ku) [Stylistic figures based on antonyms (Brief essays on the Russian language)]. Izdatel'stvo Kurskogo pedagogicheskogo instituta, Kursk, 2, 345 p.

<sup>89</sup> Il'ina Yu.Yu. Urok na temu «Vy`razitel`nost` russkoj rechi» (IX klass) [Lesson on "Expressiveness of Russian speech" (IX class)]. Nauchnometodicheskij zhurnal "Russkiy yazyk v shkole", 12, 35–40.

<sup>90</sup> Kozhevnikova N.P. (1988), *Slovopotreblenie v russkoj poezii nachala XX veka* [Word Usage in Russian poetry of the early XX century]. Monografiya, Izdatel'stvo "Nauka", Moscow, 256 p.

<sup>91</sup> Matvievskaya L.A. Kontrast i antiteza [Contrast and antithesis]. Nauchno-metodicheskij zhurnal "Russkiy yazyk v shkole", 5, 65–73. Matvievskaya L.A. Oksyumoron v tvorchestve M. Yu. Lermontova [Oxymoron in the work of M. Yu. Lermontov]. Nauchno-metodicheskij zhurnal "Russkiy yazyk v shkole", 4, 64–68.

<sup>92</sup> Pavlovich N.V. Semantika oksyumorona [Semantics of the oxymoron]. *Lingvistika i poe`tika* (Sbornik statey) [Linguistics and poetics (Collection of articles)]. Izdatel'stvo "Nauka", Moscow, 238–247.

<sup>93</sup> Solovyeva V.S. Antiteza v xiazmax A. Bloka [Antithesis in A. Blok's chiasmata]. Nauchno-metodicheskij zhurnal "Russkiy yazyk v shkole", 5, 46–50.

<sup>94</sup> <https://en.wikipedia.org/wiki/Antithesis>

<sup>95</sup> Vvedenskaya L.A. (Stilisticheskie figury`, osnovanny`e na antonimax (Kratkie ocherki po russkomu yazy`ku) [Stylistic figures based on antonyms (Brief essays on the Russian language)]. Izdatel'stvo Kurskogo pedagogicheskogo instituta, Kursk, 2, 345 p.



ta'kidlaydi<sup>96</sup>. Biroq badiiy adabiyotda antitezani tahlil va tadqiq etish uchun uning bajaruvchi rolini aniqlash darkor. Masalan, 1988 yil nashrdan chiqqan II tomlik ensiklopedik lug'atda: antiteziz (yun.), logikada – tezis (isbottalab fikrga) zid hukm; Gegel filosofiyasida – triada bosqichi, dialektik taraqqiyotda tezisning inkor etilishi<sup>97</sup>, o'zbek tilining izohli lug'atida: antiteziz – [yun. Antithesis – qarama-qarshi qo'yish] qiyoslanuvchi fikr, tushuncha va obrazlarni qarama-qarshi qo'yish uslubidan iborat yo'l. M: Yaxshi topib gapirar, Yomon qopib gapirar<sup>98</sup>.

D.E.Rozentalning “Словаре-справочнике лингвистических терминов” lug'atida «Антитеза (греч. antithesis — противоположение) — стилистическая фигура, служащая для усиления выразительности речи путем резкого противопоставления понятий, мыслей, образов. Антитеза часто строится на антонимах. Богатый и в буднях пирует, а бедный и в праздник горюет (пословица) Tabdili: Boylarda kunda bayram, kambag'allarda esa bayramda motam»<sup>99</sup> shaklida izohlangan.

Matnda birinchi bosqichda kontrast qatnashgan janr ajratib olinadi. Ikkinchi bosqichda kontrastni yuzaga chiqaruvchi antitezistik birliklar qatnashgan misralar, satrlar aniqlansa, uchinchi bosqichda zidlik munosabati aks etgan til birliklarini morfologik tabiati bilan shug'ullaniladi, ya'ni ularni turkumlarga tegishliligi aniqlanadi. Masalan:

**Kulgan** boshqalardir, **yig'lagan** menman,

**Oynag'an** boshqalar, **ingrag'an** menman,

**Erk** ertaklarin eshitgan boshqa,

**Qullik** qo'shug'un tinglag'an menman...

Boshqada **qanot bor, ko'kka uchadir,**

---

<sup>96</sup>О. Р. Семенова, Г. С. Стругова. Работа над поэтикой контраста со студентами в вузе/ Вестник Южно-Уральского государственного гуманитарно-педагогического университета, № 5, 2019

<sup>97</sup> Ensiklopedik lug'at II tomlik. – Toshkent. I tom –B.lar 557, B. 48

<sup>98</sup> Madvaliyev tahriri ostida O'zbek tilining izohli lug'ati. V tomlik. – Toshkent. I tom –B.lar 679, B. 88

<sup>99</sup> Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов (Розенталь Д.Э., Теленкова М.А.) –Г. 1976. Источник: <http://rus-yaz.niv.ru/doc/linguistic-terms/index.htm>

Shoxlarg'a qo'nadir, bog'da yayraydir.

So'zlari sadafdek, tovushi naydek —

Kuyini ham har yerda, elga sayraydir.

**Menda-da qanot bor, biroq bog'lang'an...**

**Bog' yo'qdir, shox yo'qdir, qalin devor bor.**

So'zlari sadafdek, tovushi naydek

Kuyim bor... uni-da devor tinglaydir.

**Erkin** boshqalardir, **qamalg'an** menman,

**Jonivor qatorida sanalg'an menman.** (Cho'lpon)

Cho'lpon she'riyatida kontrastni yuzaga keltiruvchi leksik birliklar sifatida **kulgan, yig'lagan, boshqalardir, menman, o'ynag'an, ingrag'an, erk, qullik, Erkin, qamalg'an** kabi leksik vositalar orqali qarama-qarshiliklar yaqqol ko'rinsa, sherning tub mag'zida aslida kontekstda ziddik ma'nosi kasb etmasa-da, mantiqan ziddik ko'rsatuvchi vositalar sifatida *“Boshqada qanot bor, ko'kka uchadir, Shoxlarg'a qo'nadir, bog'da yayraydir. Menda-da qanot bor, biroq bog'lang'an... Jonivor qatorida sanalg'an menman”* singari she'riy satrlarning tag ma'nosida antik ma'no mujassam. Tilshunoslikda antik munosabat ifodalovchi leksemalar bir so'z turkumiga oid bo'lishi haqida nazariyalar keltirilgan. G.Turdiyeva nutqda ayrim leksemalarning antonimik xususiyati orqali ham presuppozitsiyaga yo'l ochishini, ayrim sifatlarning tabiatida o'z ziddiga ishora qilish xususiyati mavjudligini, shu sababli bunday sifatlar gap tarkibida antonimik munosabati asosida muayyan presuppozitsiyani uyg'otishini aytib o'tadi va bu vaqtda sifatlar presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositaga aylanadi. Sifatlarning o'z ziddiga ishorasi sifatida yuzaga chiqqan presuppozitsiya gap qurilishida yashirin ifodasiga ega bo'ladi. Buni sifat ishtirokida tuzilgan quyidagi gap tahlilida ham kuzatish mumkin: Masalan, «Yolg'on so'zlama» gapida qo'llangan yolg'on leksemasi o'z antonimiga ishora qilishi natijasida sintaktik qurilmada «Doimo rost so'zlash lozim» propozitsiyasi yashirin ifodasiga ega bo'ladi. “Yigirma yoshini 40 yashar xotinga munosib ko'rgan yigitga qizlar o'ylashib tegadi-da”.(S.Zunnunova. “So'qmoqlar”) Ushbu gapdagi son qahramonning sifatini bildirib, “Bunaqa

yigitlarga qizlar tegmaydi”, degan presuppozitsiyaga ishora qiladi. “O‘sha Faya opa deganingiz **bir tiyinga qimmat** kampir”.(N.Aminov. “Yolg‘onchi farishtalar”). Ushbu birikmali sifat orqali matnda qahramonning “Tilga olishga arzimaydi” va “Bu to‘g‘rida umuman og‘iz ochma”, degan presuppozitsiyani ifodalaydi<sup>100</sup>. Ammo yuqorida keltirilgan “**Erkin** boshqalardir, **qamalg‘an** menman” birliklariga morfologik yondashsak, bir turkumga mansub emasligi: sifat – Fe‘l, faqatgina sintaktik sath nuqtayi nazaridan bir maydon birliklari sifatida bir tipga kirishlarini ko‘rib o‘tish mumkin. Kontrast she‘riyatda qo‘llanishiga doir misollarni Jamol Kamolning she‘riyati misolida ko‘rib o‘tamiz:

*Bog‘hovlida izlaringni izlayman,  
Atirguldan hidlaringni hidlayman,  
Gohi **kulib**, goh **o‘ksinib** yig‘layman,  
Seni sog‘insam, yor, seni sog‘insam.  
Qachon bitar bu dard, bu ranju ozor?  
Kunu tunim kechar bir ko‘rmoqqa zor,  
**Kengish** dunyo ko‘zlarimga bo‘lar tor,*

*Seni sog‘insam, yor, seni sog‘insam.*(Jamol Kamol) Bundan tashqari shoirning “Qoldi umrim ko‘klami...” nomli to‘rtligida nafaqat satrlarosh “**Shodligimdir** yoshirin, Yoshirindir **hasratim** ham”, “Ey Jamol, **yozing** etishdi, Bitdi umring **ko‘klami**” kabi qisman qarama-qarshilikka ega bo‘lgan leksemalar orqali, “**Qatra nuru qatra ko‘z yoshim**”, “**Mast etib ko‘nglimni bir dam, Yashnadi armonlarim**” mantiqiy kontrast hamda umumiy fonda kontrastning yaxlit umrning o‘tkinchiligidagi hasratda ko‘rib o‘tish mumkindir, ya‘ni:

*Qoldi umrim ko‘klami  
Kechmish yo‘lim so‘qmog‘ida,  
**Qatra nuru qatra ko‘z yoshim**  
Yonar yaprog‘ida...*

---

<sup>100</sup> Turdiyeva Gavhar Nizomovna O‘zbek tilida sifatning pragmatik xususiyatlari 5A 141101 - O‘zbek tili ixtisosligi bo‘yicha magistrlik ishi. – Navoiy. 2012. B.lar 60. B. 36.

Qatra-qatra shabnamida  
**Shodligimdir yoshirin,**  
**Yoshirindir hasratim ham**  
Qatra-qatra dog'ida.

**Hislarim sellarga qo'shdim,**  
**Oqdi anhuri Azim.**  
O, o'zim sargashta qoldim  
Termulib **qirg'og'ida.**

**Ey Jamol, yozing etishdi,**  
**Bitdi umring ko'klami,**  
Bir parining bir nafaslik  
Bo'sayi qaynog'ida...

**Topmoq –yo'qotmoqdir,**  
**Yo'qotmoq –topmoq.**

**Sen so'lib,**

**Men yashab,**

To'lishimga boq ( Muhammad Yusuf." Onajon" she'ridan)

Shoir M.Yusufning " Onajon" she'rida kontrast shodligim, hasratim kabi otlar, yo'qotmoq topmoq kabi fel noaniq shakli, sen va men olmoshi orqali kelayorgan bo'lsa-da shu bilan birgalikda ichki mantiqiy ziddiyatni semantikasi orqali ko'rib o'tishimiz mumkin.

Mustaqillik davri adabiyoti shoirlarida biri Usmon Azim sherlarida biri bo'lgan "Grafika" to'rtliklari boshdan oxiriga qadar kontrast usuliga qurilgan hamda makon, zamon, holat va voqeliklar kitobxonga oq, qora ranglarda taqdim etiladi

Ko'zing **qaro** sening, qoshlaring **qaro,**

Yuzlaring **oq** sening, kulishlaring **oq.**

Qo'lingdagi ta'na toshlaring **qaro,**

Menga g'amgin boqib turishlaring **oq**  
Unutishing – **qaro**, hijroning **qaro**,  
Sog'inching **oppoqdir**, xatlaring – **oppoq**.  
**Qarodir** yurganing o'ch-mehr aro,  
Menga tashlab ketgan dardlaring – **oppoq**.  
Shommi yo saharmi – vaqtimdir **qaro**,  
Sen deb to'kayotgan yoshlarim **oppoq**.  
Sening ham, mening ham baxtimdir **qaro**,  
O'ttiz to'rt yoshingda sochlaring **oppoq**.  
Ishon, yurak oqdir, qarodir taqdir,  
**Oq-qaro bo'yoqlar** bizning bog'larda...  
Men **million bo'yoqni** bilardim, axir,  
Ikkimiz baxtiyor bo'lgan chog'larda. ( Usmon Azim. Grafika)

Muallif qora sifatini graduonimik maqsadida uni “qaro” deya keltirib, “Oppoq” sifatiga antonimik munasabat sifatida kiritadi, satrlarning oxirida esa ayni “oq va qora” sifatlari boshqa ranglarni bildiruvchi bo'yoqlarga zidlantirganini guvohi bo'lamiz.

### **Disseratsiyaning III bobi yuzasidan shunday xulosalarga kelindi:**

1. Anaforaning matnda xotirada saqlanib qoluvchi o'ziga xos belgi va xotirada qoluvchi ramziylikka ega bo'lgan hamda ayni shu jihati yordamida samaradorligining yuqori darajadagi namunasi bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaymiz.
2. Anafora haddan ziyod ajralib turuvchi badiiy san'at kirmaydi va suhbat jarayonida va yozma adabiyotlarda kuzatilishi mumkin bo'lgan, og'zaki nutqda, zaruruy fikrni, ya'ni axborotni uzatish jarayonida suhbat mavzusiga tayyorgarlik darajasining pastligi hamda nutqiy kompitentlashmagan holatda anaforadan parazit so'z maqomida foydalanish mumkinligini aytib o'tamiz, yozma adabiyotlarda esa hissiy-ta'siriy va emotsional ekpressiv bo'yoq berish maqdadida so'zlarning takroriga yo'l qo'yiladi, ayni shu maqsadda anaforadan nafaqat she'riy asarlarda, balki dramatic asarda qo'llanishi mumkinligini ta'kidlaymiz.
3. Yuqoridagi misollardan kontrastning o'zbek adabiy tilida ot, sifat va fe'l so'z turkumlari orqali ifodalanishi mumkinligini guvohi bo'lindi.

Shuningdek antonimik munosabat o‘zbek she’riyatida ichki semantika orqali namoyon bo’lishini qayd etamiz.

## UMUMIY XULOSA

Badiiy tasvir vositalari sifatida anafora she'rlarda ifodalangan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirliroq ifodalanishiga, lirik timsollarning yorqinroq gavdalandirilishiga, misralar bandlarning musiqiyliigi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Takrorlar qo'llanish o'rniga ko'ra gorizantal va vertikal takrorlarga bo'linib, uning ruhiy va hissiy holatini tushunishga yordam beradi. Bu esa she'riy texnika, balki anafora nasrda ham murakkab jumlar, iboralar paragraflar qismlarini takrorlashda ham uchraydi.

Takrorlar (anafora, epifora)ning turli xil turlarining rus lingvistikasida ko'plab uchratilishi uning morfologik-sintaktik qurilishi bilan bog'liq yuzaga chiqadi.

Leksik va morfemik takrorlar nafaqat badiiy adabiyotda, balki og'zaki nutqiy janrlarga oid bo'lgan matnlarda ham uchrashi mumkin. Bundan, asosan, sheva vakillari o'z suhbatlarida emotsional-ekspressiv, ta'kidiylik nuqtayi nazaridan sintaktik konstruksiyali takrorlardan ko'p o'rinlarda foydalanadilar.

Birinchi signal sistemasida tasviriy ifodalarda insonning olamning lisoniy manzarasini qabul qilishi yorug'lik, rang, hajm, ko'lam jihatidan hissiy (timsollar,tasvirlar,obrazli va aqliy, mavhumiy so'z,tushuncha qonuniyat tariqasida) tarzda namoyon bo'ladi hamda jismlar, hodisalar o'rtasidagi farqlanuvchi alomatlarini birlashtiradi va inson idrokida timsolning qarama-qarshilarinining paydo bo'lishiga olib keladi.

Qarama-qarshilik nazariyasi inson tafakkur dunyosining asl qonuniyatlaridan biri bo'lib, qarama-qarshiliklar nisbati bilishning yuqori nuqtasi va badiiy adabiyotda yozuvchi uslubining muhim tarkibiy qism vazifasini idroq etishga majbur qiladi.

„Kulish va xo'rsinish”, „quvonch va qayg'u”, „zulmat va yorug'lik”, „ishq va ishqsizlik”, „o'lim va hayot”, „yiqilish va turish”, „aql va ongsizlik”, „kecha va kunduz”, „tun va kun”, „quyosh va oy”, „aybsizlik va aybdorlik”, „baland va past”,

nam va quruq” leksemlari yoki nominativ xarakterga ega “Zumrad va Qimmat”, “Muqbil va Mudbir”, “Egrivoy va To‘g‘rivoy” kabi asarlar kontrastga yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu muvofiqlashtiruvchi teng bog‘lanishli birliklarda qarama-qarshiliklarni tashkil etuvchi juft qarama-qarshiliklar bir vaqtning o‘zida qarama-qarshiliklar bir vaqtning o‘zida qarama-qarshilik ma’nosini birining ikkinchisiz bo‘lishi mumkin emasligini anglatadi.

Takroni badiiyat va lingvistikaning turli sathlarda: fonetik, leksik, semantic, sintaktik, ritmik birliklarning o‘lchov asosida tartibli takrorlanishini, mumtoz adabiyotda esa belgilangan me‘yoriy holatdan tashqari ishlatilmasligini kuzatish mumkin.

Anafora – bu matnni tashkil etadigan matnni tuzish jarayonida leksema, so‘z yoki iboralarni takrorlashga asoslangan ritorikaning manbayi hisoblanib, zamonaviy matn lingvistikasida qo‘llangan ayrim affikslar, so‘z, so‘z birikmasi yoki gaplarning keying komponentlar tarkibida takroran qo‘llanishi orqali matn shakllantirishi mumkin.

Zamonaviy matnlarda anaforaning, asosan, she’riy matnlarda uchrashini alohida ta’kidlaymiz. hisobga olib quyidagi anaforik shartlar hisobiga she’riy san’atlar yuzaga keladi va u **bir xil jaranglovchi tovushlarning takrorlanib kelishi, bir xil so‘zlarning ohangdosh bo‘lib takrorlanishi**, so‘z shaklidagi anaforalar *leksema hamda leksema+Grammatik shakl* hosilasi sifatida shakllanishi mumkinligi, she’riy matnlarda anaforalar faqatgina satr boshida kelmasdan satr davomida ham kuzatilishi mumkinligi hamda she’riy matnlarda anaforaning strofik (to‘la qatorli) variantda uchratish mumkinligini ta’kidlaymiz.

1920 yillarda Rossiya mustamlakachilik siyosati, Turkiston xalqlarining usiz ham og‘ir bo‘lgan hayotini yanada qiyinlashgani, qashshoqlik tufayli esa turkistonliklarda shoirlarda bu hol o‘z millatining o‘tmishidan xabardor va kelajagidan umidi ularning sherlariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi va ular bu holatlarni bo‘rtirib ko‘rsatish maqsadida o‘z she’riyatlarida takror va voqeliklarni qarama-qarshi qo‘yish orqali buni ko‘rsatib o‘tdilar.



Mafkuraga bo'ysungan adabiy siyosatdan farqli o'laroq insonni qadrlash, Vatanning buyuk kelajagi yo'lida qayg'urish, milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni e'zozlash hamda muhabbat tuyg'ulari tarannumi kabi qator mavzularda sher yozish davlar aro qiyoslash imkoniyati kontrast sheri san'ati orqali ko'rsatib berilgan.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **ME'YORIY-HUQUQIY HUIJATLAR, QARORLAR VA METODOLOGIK AHAMIYATLI ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.– B. 488.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz//O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – B. 56.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.– Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 104.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 48.
5. "O'zbekiston Respublikasi davlat tili haqida"gi Qonuni.–T.: O'zbekiston, 1989.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida”gi PF-4997-sonli qarori// 2016 yil 13 may.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi Qarori // Xalq so'zi, 2017 yil, 29 iyul.

## **II. ILMIY MONOGRAFIYA, RISOLA, DARSLIK, O'QUV, METODOLOGIK QO'LLANMA, DISSERTATSIYALAR VA AVTOREFERATLAR**

1. Б.Умуркулов Ўзбек бадий насрининг лингво-услужбий шаклланиш асослари Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини

олиш учун такдим этилган диссертация. –Тошкент, 2020. – В. 271. Грэм Херст. "Анафора в понимании естественного языка" – Hirst. 1981.

2. Galperin I. R. Some Principal Issues of Style and Stylistics as Viewed by Russian Linguists //Style. – 1971. – С. 1-20. – P. 16.

3. Мамажонов А. Текст лингвистikasi.– Ташкент, Fan, 1989

4. Polyakov AM (1981). "Quantum geometry of bosonic strings". Phys. Lett. B. 103 (3): 207–10.

5. С. Ахманова Словарь лингвистических терминов – М.: 2004.

6. Седых Э. В. Контраст в поэзии как один из типов выдвижения : 10.02.04.// Дис. ... канд. филол. наук 10.02.04 СПб., 1997 – С. 208.

7. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili. –Toshkent, T. Sabitova. Navoiy ijodida badiiy san’atlar / academic research in educational sciences/ volume 2 | issue 4 | 2021 issn: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00704 Academic Research, Uzbekistan 1074 www.ares.uz [1074-1091.pdf \(ares.uz\)](http://www.ares.uz/1074-1091.pdf)

8. Timofeev L. I. Osnovy teoriya literatury //Moskva,«Prosveschenie», 1976. – 1976.

9. То‘uchiyev U. O‘zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. – Т.: Yangi asr avlodi, 2011

10. Шер Д. К. Идентификация и анализ контраста как дискурсивного отношения //Вестник Челябинского государственного университета. – 2020. – №. 1 (435). – С. 181-187.

11. Fan, 2007.

12. Qurbonova M. Matn tilshunosligi.– Toshkent, Universitet nashriyoti, 2014

13. E.Qilichev. Matnning lingvistik tahlili. – Buxoro, 2000

16. Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – Т., O‘qituvchi, 1967. – В. 25

14. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: O'zME, 2002. – B.
15. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoyetik tahlili asoslari. – T., Fan, 2007. – B. 97.
16. Boboyev T., Boboyeva Z. Badiiy san'atlar. – T.: TDPU, 2001. – B. 13.
17. Tўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Т., Янги аср авлоди, 2011. –Б. 93.
18. Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Т., Ўқитувчи, 1967.–Б. 25.
19. Sher D. K. Identifikasiya i analiz kontrasta kak diskursivnogo otnosheniya //Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta. – 2020. – №. 1 (435). – S. 181-187.
20. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. O'zME, 2002. – B. 168.
21. Shofqorov A.M. O'zbek tilida badiiy takror. – T., Fan va texnologiya, 2019. – B. 120.
22. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand: SamDU, 1994. – B. 140.
23. Веселовский А. Н.Историческая поэтика. – М.: Высшая школа. 1989.
24. Потебная А.Эстетика и поэтика М.1976. – С. 272.
25. В. То'хлиев, В. Karimov, К. Usmonova. Adabiyot. (10-sinf darslik-majmua. – Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.
26. Седых Э. В. Контраст в поэзии как один из типов выдвижения : 10.02.04.// Седых Э. В. Контраст в поэзии как один из типов выдвижения: Дис. ... канд. филол. наук 10.02.04 СПб., 1997 – С. 208.
27. Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent, O'qituvchi, 1967.

28. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент, Янги аср авлоди, 2011. – Б. 93.
- 29.Б. Умуркулов. Бадиий адабиётда сўз.– Тошкент, Фан, 1993.
- 30.Б. Умуркулов. Поэтик нутк лексикаси. – Ўзбекистон ССР, Фан, 1990.
- 31.Мамажонов А. Tekst lingvistikasi.– Toshkent, Fan, 1989
- 32.Qurbonova M. Matn tilshunosligi.–Toshkent, Universitet nashriyoti, 2014.
- 33.Е.Қиличев. Matnning lingvistik tahlili. – Buxoro, 2000.
- 34.No'monova M. U. Hamid olimjon she'riyatida leksik takrorlar// Academic research in educational sciences Vol. 2 | IS. 2 | 2021 ISSN: 2181-1385 2021.
- 35.Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. (структура стиха) – М.: 1972. – С. 272.
- 36.М.Ҳо'лдошев.С.Муhamмедова ,М.Сапарниязова ,Matn lingvistikasi Т.2020 – В. 46-47.
- 37.Потебная А.Эстетика и поэтика М.1976. – С. 45.
- 38.Холова М. А. О'zbek shevalarining standart tilga munosabati va til tizimidagi o'rni (boysun tumani “j” lovchi shevalar misolida) //Международный журнал искусство слова. – 2020. – Т. 3. – №. 5.
- 39.Холова М. А. Шевалар корпусининг жанрий теглашнинг лингвистик асослари //Международный журнал искусство слова. – 2021. – Т. 4. – №. 4.
- 40.Safarovna S. N. Oksyumoron haqida mulohaza //Innovation: The journal of Social Sciences and Researches. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 131-134.
- 41.Riches S. F. et al. Multivariate modelling of prostate cancer combining magnetic resonance derived T2, diffusion, dynamic contrast-enhanced and spectroscopic parameters //European Radiology. – 2015. – Т. 25. – P. 1247-1256.
- 42.Safarovna S. N. Oksyumoron haqida mulohaza //Innovation: The journal of Social Sciences and Researches. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 131-134.

43. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug' otit turk. I, II, III jildlar. – Toshkent. 1960-1963. B.
44. D. Quronov Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent. 2013. – B. 406.
45. Ne'matova D.S. “Sarf” asarida so‘zning morfologik strukturasi talqini / research focus | volume 1 | issue 3 | 2022 issn: 2181-3833 researchbip (14) |

#### VI. INTERNET MATERIALLARI, ELEKTRON RESURLAR

1. <file:///C:/Users/hp/Downloads/halima-ahmedova-she-riyatida-takror-san-atining-lingvopoetik-xususiyatlari.pdf>
2. <https://www.studiobinder.com/blog/what-is-anafora-definition/>  
<https://literarydevices.net/anaphora/>
3. <https://literarydevices.net/epiphora/>
4. <https://b1.cooksy.ru/articles/leksicheskaya-i-sintaksicheskaya-anafora/>  
<https://literarydevices.net/anaphora/>
5. <https://ruskiypro.ru/chto-takoe-anafora/>
6. <https://minikar.ru/uz/prayers/nastoyashchaya-lyubov-v-zhizni-cheloveka-kakaya-ona-nastoyashchaya-lyubov/>
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Trop>
8. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/qosimjon-sodiqov-bilga-tonyuquq-bitigi.html> <https://uz.wikipedia.org/wiki/To'nyuquq>
9. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/qosimjon-sodiqov-bilga-tonyuquq-bitigi/>
10. <https://multiurok.ru/files/sheriy-badiiy-sanatlar-haqida.html>
11. <https://literarydevices.net/assonance/>
12. <https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=1786.20>
13. <https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=6664.0>
14. <https://fayllar.org/mavzu-alisher-navoiyning-hayoti-va-ijodi-reja-v2.html?page=2>
15. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/30-may-atoqli-shoir-mirtemir-tavallud-topgan-kun.html>
16. <https://fayllar.org/jadidchilik-va-jadid-adabiyoti-yangi-ozbek-adabiyotining-oziga.html>
17. <https://uzbaza.uz/abdulla-oripov-sherlari/>

18. <https://www.studiobinder.com/blog/what-is-anaphora-definition/https://www.studiobinder.com/blog/what-is-anaphora-definition/>
19. <https://en.wikipedia.org/wiki/Antithesis>